

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Qo'lyozma xuquqida

UDK 93:355/359 (575.1)

SALAYEV IXTIYOR BAXTIYOROVICH

Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi

5A110601 – Tarix o'qitish metodikasi

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

t.f.n.dots. N.A.Egamberdieva.

MUNDARIJA

Kirish	
I bob. Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimining o'rganilish....	10
1. Xiva xonligining tashkil topish jarayonidagi harbiy qo'shin va mudofaa tizimi tahlili	10
2. Xiva xonligida harbiy boshqaruv va mudofaa tizimining tarixiy asarlar va manbalarda yoritilishi.....	16
3. XVII–XVIII asrlarda Xiva xonligidagi harbiy ish tarixi.....	23
II bob. Xiva xonligining harbiy boshqaruv tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari (Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi bilan qiyoslash)	31
1. Xiva xonligida boshqaruv tizimining o'ziga hos xususiyatlari.....	31
2. Olloqulixon xukmronligi davrida Xiva xonligidagi harbiy boshqaruv tizimi	36
3. Xiva xonligiga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishlar vaqtida xonlikdagi harbiy holat	43
III bob.	
Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi mavzusining o'qitish masalalari va texnologiyalari	51
1. Mavzu yuzasidan o'tkazilgan eksperiment va uning natijalari....	51
2. Bir soatlik dars ishlanma	56
3. Xulosa va metodik tavsiyalar	70
Xulosa	
Ilova	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Xorazm jahon madaniyati rivojiga, umuminsoniy qadriyatlarning takomillashuviga salmoqli hissa qo'shgan qadimiy o'lkalardan biri hisoblanadi. Bu ko'hna yurt tarixiga qiziqish uni har tomonlama o'rganish va yoritishga intilish jahonning ko'plab mamlakatlarida kuchli bo'lgan. Xalqimizning o'tmishi, tarixini yoritish ishiga hurmatli Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligida davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, haqqoniy va adolatli yondashildi. Jahonning eng qadimiy yurtlaridan biri bo'lgan Xorazmning uzoq o'tmishi, tarixini o'rganish va uni yoritish endilikda yangicha mazmunga ega bo'ldi. Ma'lumki, mustaqillikgacha bo'lgan tarixnavisligimizda o'tmishning turli davrlarida katta faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaxslar, ayniqsa, hukmdorlar har tomonlama kamsitilib kelinardi. Bu hol minglab yillarga ildiz otgan tariximizni haqqoniy yoritish yo'lida to'siq edi. Vaholanki, jahon tarixida bo'lganidek, mintaqamiz o'tmishida ham ko'plab e'tiborli zotlar yetishib chiqqan va ular yurt ravnaqi, uning taraqqiy topishiga katta hissa qo'shib kelganlar. Endilikda biz ularga to'g'ri baho berish, dastlabki ishonchli manbalar asosida bunday tarixiy shaxslar bilan bog'liq voqea va hodisalarni xolisona tahlil etish imkoniyatiga ega bo'ldik. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so'zlari g'oyat o'rinlidir: - "Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi"¹.

Tarix sohasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tufayli nafaqat tariximizning buzib talqin etilgan sahifalari qaytadan sayqal topmoqda, balki voqealarga boy tariximiz jahon miqyosida ham tan olinish sari o'ziga yo'l ochmoqda. - "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish,

¹ Каримов.И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари, тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон. 1997, 137-б.

yana bir bor qurollantirish zarur. Agar olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlari zahirida ana shu fikr, ana shu maqsad bo'lmasa, ularning sariqchaqalik ahamiyati yo'q"- degan so'zlari bilan Prezidentimiz tarixchilar oldiga ilmiy jihatdan asoslangan va haqqoniy tarixni yaratish vazifasini qo'ydi¹.

Tarix, tarixiy haqiqat va uni ilmiy jihatdan xolislik asosida o'rganish, ayniqsa uni yosh avlodga yetkazib berish bugungi tarix fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. O'zbekistonning bir necha ming yillarga borib taqaladigan qadimiy tarixi, uning davlatchilik masalalari, ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy merosi, o'zbek xalqining shakllanishi va etnik jarayonlar va boshqa ko'plab tariximizga taalluqli jihatlariga oid minglab nodir qo'lyozmalar va boshqa manbalar yaratilgan. Xorazmda shakllangan o'zbek tarixnavislik maktabi, ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda yuksaklikka ko'tarilgan. Bu yerda birin-ketin buyuk o'zbek tarixnavislari – Munis, Ogahiy va Bayoniylarning jahon tarixnavisligida “Xorazm salnomalari” nomini olgan qimmatli asarlari vujudga keladi. Bu tarixiy asarlarda Xiva xonligining xalqaro munosabatlari, ichki va tashqi siyosati va xonlikning qo'shini, harbiy va mudofaa tizimi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ushbu fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, boy o'tmishning to'la yoritilmagan mo'jaz bir qismi – Xiva xonligining XVI-XIX asrlardagi harbiy va mudofaa tizimini bo'lib, uni ilmiy va xolis o'rganish va birlamchi yozma manbalar asosida tahlil etish ushbu magistrlik ishining oldida turgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Tadqiqot ob'ekti. XVI-XIX asrlardagi Xiva xonligidagi harbiy va mudofaa tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Xiva xonligidagi harbiy va mudofaa tizimining qo'shin tarkibi, mudofaa inshootlari, harbiy qurol aslahalar, mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va chop etilgan adabiyotlarning tahlili va mavzuni o'qitishning ta'lim texnologiyalaridan iborat.

Tadqiqotning maqsadi. Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimini ilmiy adabiyotlar va mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar va ularning xususiyatlari,

¹ Каримов.И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Шарқ, 1998, 24-б.

fanning rivojlanishiga qay darajada hissa qo'shganligini tahlil etish va aniqlashtirish, ulardagi tajribalardan kelib chiqqan holda mavzuning bugungi kunda tarix fanida o'rganilish masalalarni tahlil etish va tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo'yildi:

1. Xiva xonligining tashkil topish jarayonidagi harbiy qo'shini va mudofaa tizimini tahlil qilish;
2. Xiva xonligining harbiy boshqaruvi va mudofaa tizimining tarixiy asarlar, manbalarda yoritilishini chuqur o'rganish va nazariy tahlil qilish;
3. XVII-XVIII asrlarda Xiva xonligidagi harbiy ish tarixini yoritib berish va uning eng asosiy jihatlarini ko'rsatib berish;
4. Xiva xonligida boshqaruv tizimining o'ziga hos hususiyatlari va uning asosiy jihatlarini ochib berish;
5. Olloqulixon xukmronligi davrida Xiva xonligidagi harbiy boshqaruv va mudofaa tizimi chuqur o'rganish;
6. Chor Rossiyasi tomonidan Xiva xonligiga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishlar vaqtida xonlikdagi harbiy holatning asosiy jihatlarini o'rganish va tahlil qilish;
7. Darsliklarda Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi mavzularini yoritilishini masalasini tahlil etish;
8. Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi mavzusini o'qitish masalalari va ta'lim texnologiyalarining eng samarali usullarini tanlash va ularning dars o'tish jarayonidagi metodikalarini ishlab chiqish va dars tahlillarini amalga oshirish;
9. Tadqiqot yuzasidan umumiy xulosalarni ishlab chiqish;

Mavzuning o'rganilish darajasi. Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi mavzusi bo'yicha maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan. Lekin adabiyotlar, tarixiy asarlar va manbalarda Xiva xonligining tarixini o'rganilgan. Mazkur mavzuni o'rganish darajasini 3 bosqichga bo'lishimiz mumkin:

1-bosqich: Chor Rossiyasi bosqinigacha bo'lgan va undan keyingi davrlarga oid manbalar (XVII asrdan – XX asr boshlarigacha)

2-bosqich: Sobiq Ittifoq davrida mavzuga oid tadqiqotlar (XX-asr davomida)

3-bosqich: Mustaqillik davridagi tadqiqotlar (XX asr oxiridan hozirgi kungacha)

Birinchi bosqichga XVII asrdan – XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda ya'ni, Xiva xonligi tashkil topgan davrdan tortib, Chor Rossiyasi bosqini va undan keyingi davrlarda yaratilgan asarlarni kiritish mumkin. Bular qatoriga Abulg'ozi Baxodirxon¹, Said Xomid Komyob², Muhammad Yusuf Bayoniy³, Munis⁴, Ogahiy⁵ kabi tarixchilarning qimmatli asarlarini kiritish mumkin. Bu mualliflar asarlaridagi asosiy xususiyat Shundaki, ular rus tarixchilari yoki tadqiqotchilari uchun deyarli noma'lum bo'lgan Xiva xonligi haqida, uning aholisi, urf-odatleri, hududlari va chegaralari, harbiy qo'shinlari va mudofaa tizimining ahvoli va boshqalar yuzasidan asosan ilk axborotlarni to'plaganlar va ma'lumot tarzida yetkazib berganlar.

Xiva xonligi harbiy va mudofaa tizimi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarning ikkinchi davrini sobiq ittifoq davrida yaratilgan asarlar tashkil qiladi. Bu davrda rus sharqshunos tarixchi olimlaridan V.V.Bartold⁶, M.M.Terenev⁷, Ye.Jelyabujskiy⁸, Z.Kastelskaya⁹, A.L.Papov¹⁰, N.A.Xalfin¹¹, A.F.Yakunin¹², Ye.Dvorkina¹³, P.P.Ivanov¹, N.Muravyev², N.Zalesov³,

¹ Абулғози Баходирхон. Шажарайи турк. –Т.: Чўлпон. 1992.

² Саид Хомид Камёб. Таворих ул-хавонин. –Т.: Академия, 2002.

³ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1994;

⁴ Мунис. Танланган асарлар. –Т.: Ўзадабийнашр. 1992;

⁵ Огахий. Танланган асарлар. 6 жилдлик. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1971; Огахий. Зубдату-т-таворих. –Т.: Ўзбекистон, 2009.

⁶ Бартолд.В.В. Отчет о поездки в Средню Азию с научную целью.1893-1894. Соч.Том. 4. 1966.

⁷ Терентев М.М. История завоевания Средней Азии. Т. 1-3, СПб, 1906.

⁸ Желябужский.Э. Очерки и завоевании Хиви. СПб, 1980.

⁹ Кастелская З. Из истории Туркестанского края. (1865-1917). –М, 1980.

¹⁰ Папов А.Л. Из истории завоевания Средней Азии. Исторические записки. –М., 1940. №9

¹¹ Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60-90 года XIX в.) –М.,1965.

¹² Якунин А.Ф. Народы Средней Азии и России. –М.,1954.

¹³ Дворкина.Е. Национально-колониальная политика самодержавий в первый год царского владчества в Туркестане. (1867-1881 гг.) Диссертация на соиск.уч.ст.канд.ист.наук. –Т.,1943.

Ye.B.Kileveyn⁴, M.I.Ivanin⁵, Ye.K.Meyendorf⁶, Yu.Bregel⁷, M.Gavrilov⁸, V.Grigorev⁹, S.Jukovskiy¹⁰, S.Zaxarin¹¹, G.Danilevskiy¹², P.Nazarov¹³, N.Fioletov¹⁴ va boshqalar Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining bosib olinishi va mustamlaka qilinishi masalalariga doir bir qancha asarlar yozib qoldirganlar.

Xiva xonligi tarixi bo'yicha uchinchi asosiy davrini O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy asarlarni va tadqiqotlar tashkil etadi. Mustaqillik yillarida H.Ziyoev¹⁵, T.N.Ne'matov¹⁶, Ahmad Zakiy Validiy¹⁷, Q.Munirov¹⁸, B.A.Ahmedov¹⁹, M.Yo'ldoshev²⁰, K.Xudoyberganov²¹, U.Bekmuxammad²², D.Ziyayeva²³, O.Mutalov²⁴, va boshqalar tomonidan Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi

¹ Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI–середина XIX в). –М.,1958.

² Муравев Н. Путешествие в Туркмению и Хиву гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравева. М.,1822.

³ Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 года. –М.,1865.

⁴ Килевейн Е.Б. Открывок из путешествия в Хиву и некоторые подробности о ханстве во время правления Сеид-Мохаммед Хана, 1856-1860. –М.,1861.

⁵ Иванин М.И. Хива и Аму-даря. –М.,1873.

⁶ Меендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. –М.,1975.

⁷ Брегел Ю.Э. К изучению земельных отношений в Хивинском ханстве. Ежегодник. –М.: Наука. 1972.

⁸ Гаврилов М.В. Куня-Ургенч: страницы прошлого и настоящего. –Ташавуз, 1993.

⁹ Григорев В.В. Описание Хивинского ханства и дороги. Труды из Сарайшиковской крепости. –СПб, 1861.

¹⁰ Жуковский С.В. Сношение России с Бухарой и Хивой последнее трехсотлетие. –Пг.: Б. I.,1915.

¹¹ Захарин И.П. (Якунин) Граф В.А.Перовский и его зимний поход в Хиву. СЧ. II. –СПб.: Б. I.,1901.

¹² Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства// Записки русского географического общества. –М.: 1851. Кн 5.

¹³ Назаров П. Воспоминания о степном походе в ханства Хиву и Бухару// Военный сборник. -1864. Н 4.

¹⁴ Фиолетов Н. Бухарское и Хивинское ханства и отношения их с Россией (XVI-XIX вв.)

// "Исторический журнал". -1942. –Н 3. С. 11-12.

¹⁵ Ҳамид Зиёев. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш (XVIII–XX аср бошлари) –Т.: Шарк, 1998.

¹⁶ Неъматов Т. Хива билан Россия ўртасидаги муносабатлар тарихига доир баъзи манбалар. -Т.: Ўздаврнашр, 1959.

¹⁷ Ахмад Закий Валидий. Рус мустамлака сиёсатининг моҳияти ва мақсади. (Б.Қосимов таржимаси). -Вена, 1929.

¹⁸ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. –Т.: ЎзФА. 1960.

¹⁹ Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Т.: Ўқитувчи. 2001.

²⁰ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер егаллиги ва давлат тузилиши. -Т.: Ўздаврнашр, 1959.

²¹ Худойберганов К. Хива хонлари шажараси.- Хива: 1996.

²² Бекмухаммад У. Ҳарбий ҳийлалар. -Т.: Янги аср авлоди, 2008.

²³ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарк. 2012.

²⁴ Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. –Т.: Офсет–принт, 2005.

mustamlakachiligi tarixiga bag'ishlangan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi va asarlar yaratildi.

Tadqiqot uslubiyati va uslubilari: ijtimoiy voqeilikni bilish va o'rganishning dialektik metodi, uning ilmiylik, xolislik, tarixiylik, tizimlilik va rivojlanish tamoyillari.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi: Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi mustaqil tadqiqot sifatida kompleks va tarixiylik nuqtai nazaridan ilk bor o'rganildi, uni o'qitish metodikasi ishlab chiqildi va tegishli ilmiy hulosalar, taklif va tavsiyalar tayyorlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu: Dissertatsiyaning xulosalari va amaliy tavsiyalaridan Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi mavzusida umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida xususan, zamonaviy harbiy ta'lim muassasalarida, O'zbekiston Qurolli Kuchlar Akademiyasi talabalarining harbiy va zamonaviy bilimlarini rivojlantirish va aqliy salohiyatini yuksaltirish uchun o'tkaziladigan mashg'ulotlarda, shuningdek tarix fanining tegishli mavzularida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining tuzilish tartibi: Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, annotatsiya, mavzuga oid tayanch so'zlar lug'ati hamda ilovalardan iborat.

I-BOB. XVI-XVIII ASRLARDA XIVA XONLIGINING HARBIY VA MUDOFAA TIZIMI

1. Xiva xonligining tashkil topish jarayonidagi harbiy qo'shini va mudofaa tizimi tahlili.

Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq Huroson davlati tasarrufida edi. Xorazmda qo'ng'iroq qabilasidan chiqqan Chin So'fi hokim edi. U rasman Husayn Bayqaro noibi hisoblanardi. 1505-yilda Shayboniyxon, 1510-yilda esa Eron hukmdori Shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq Shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. Vazir Shahri qozisi Umar qozi yetakchiligida safaviylar hukmronligiga qarshi xarakat boshlanadi. 1511-yilda Xorazmning mo'tabar zotlari mamlakat taxtiga Shayboniyxon avlodlaridan bo'lgan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni o'tqazishga qaror qildilar. Shu tariqa Xiva xonligiga asos solindi. Tez orada Xiva, Xazorasp, Kat qizilboshlilardan tozalandi. 1524-yilda Shoh Ismoilning o'limi o'zbeklarning Urganchda mustahkam o'rnashib, bu hududdagi anchagina yerlarni – Sharqda hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning Shimolida Saraxs tumani, Orol va Mang'ishloqni qo'shib olishga imkon berdi. Elbarsxon davridayoq, xonlikning siyosiy geografiyasi shakllanib bo'ldi. Uning tasarrufiga Xorazm – Amudaryo etaklaridagi qadimiy dehqonchilik vohasi, Shuningdek Mang'ishloqning Abulxon tog'lari, Dehiston va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman hududlari kirgan. Xiva xonligining Sharqiy chegarasi to XX asrgacha Amudaryo chap sohilidagi Darg'on (Darg'onota) qal'asi hududi bo'lgan¹. Elbarsxon tomonidan Xiva xonligida harbiy kuchlar va qo'shinga alohida e'tibor berildi.

Yozma manbalarda qayd etilishicha, bu davrda eng asosiy jang qurollari o'q va kamon bo'lgan². Oddiy kamon yoy shaklida egilgan qattiq yog'ochning ikkala uchini mustahkam ip bilan tarang qilib bog'lash orqali yasalgan. Bu davrda

¹ Огахий. Зубдату-т-таворих. –Т.: Ўзбекистон. 2009, 16-б.

² Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимга даврдан хозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 11-б.

kamonning asosi tashqi tomondan chandir, ichki tomondan silliq muguz bilan yopishtirilgan yog'ochdan iborat bo'lgan. Ba'zida tutqichning o'rtasi va oxiri suyak (dandon) bilan qoplangan. Bu kamoning o'qi uzoqqa otiladigan alohida, murakkab turi edi. Shu bilan birga, murakkab tuzilishga ega kamolarning turlari ham turlicha bo'lgan. Kamondan o'q uzish nafaqat o't ochish qurollari paydo bo'lgunga qadar, balki undan keyin ham O'rta Osiyoda muayyan masofadan turib nishonga urishning asosiy usuli bo'lib kelgan. Bu esa XVII asr oxiri va XVIII asr boshlaridagi qabilalar yo'lbo'shchilarining mavqeining oshishi va iqtisodiy qudratining o'sishi bilan asoslanadi. Ularning tayanch kuchi bevosita qabila sardoriga bo'ysunadigan otliq askarlar hisoblanar edi. Ba'zi bir shaharlar xunarmandchilik ishlab chiqarishining yirik markazlari edi. Hunarmandlar ushbu madaniy markazlar aholisining asosiy qismini tashkil etgan holda, ularning bir qismini qurol-yarog' tayyorlashga ixtisoslashgan.

Siyosiy qudrati ko'p jihatdan qurolli kuchlarga bog'liq bo'lgan Xiva xonligining poytaxti hisoblangan Urganchda XVIII asrning birinchi yarmida qurol-yarog' yasash ishlari sezilarli darajada rivojlangan. Qo'shin va harbiylashgan qismlar uchun qilichlar, xanjarlar, oyboltalar, jangovor boltalar, sovutlar, dubulg'alar, qalqonlar va turli hildagi qurol-yarog'lar tayyorlangan. Qilich va o'qlangan kamondan hujum vaqtida otliqlar keng foydalanganlar. Kamondan qamal qilingan shaharliklar ham qal'a devorlarida turib, unumli foydalanganlar. Binobarin, kamon va o'qlar turli shakl va o'lchovda tayyorlangan. Tadqiq qilingan tarixiy manba va adabiyotlarda kamoning o'lchovi o'qining uzunligiga muvofiq kelishi haqida fikr bildirilgan¹. Shuningdek, o'q otar qurollar – taxshanlar ham qo'llanilgan. Lekin taxshandozlar XVI-XVIII asrlardagi harbiy to'qnashuvlarning ishtirokchilari sifatida kamdan kam hollarda tilga olinadi. Kamon va o'qlarni olib yurish uchun ustalar sadoq yasaganlar. Aslzodalarga mo'ljallangan sadoqlar qimmatbaho charmdan tayyorlangan. Ma'lumki, kamondan otish uchun o'q uyacha (chuqurcha) vositasida ipga mustahkamlangan. O'qlar turli shaklda bo'lishi

¹ Курилев В.П. Оружие казахов //Материальная культура и хозяйство народов Кавказа, Средней Азии и Казахстана. Сборник МАЭЛ. 1978, С.19.

mumkin edi. Yog'och, poynak va qush patidan yasalgan o'qlar keng tarqalgan. Ba'zida o'q yasashda qush patidan foydalanilgan. Yog'och o'qlar turli turdagi daraxtlardan tayyorlangan, jumladan, qayindan yasalgan o'qlar tilga olinadi. Paykonlar belgilangan vazifasiga ko'ra turli tuman bo'lgan. O'qning uzunligi kabi unga suqulgan patlar ham turli shaklda edi. Neftga shimdirilgan matoni o'qqa o'rash orqali yondiruvchi o'qlar ham tayyorlangan. Qamal qilinganlar qal'a devorlaridan turib qamal qiluvchilarni o'qqa tutish uchun ulardan foydalanganlar. Qamal qilayotganlar esa qamal qilinayotgan shaharda yong'in chiqarish maqsadida yondiruvchi o'qlar otganlar. O'qning o'rtacha qancha masofaga otilishidan amalda jang oldidan qo'shinning joylashgan o'rnini, ba'zida esa umuman masofani aniqlash uchun foydalanilgan. O'qlarning uchi suyak (dandon) yoki metalldan yasalgan. Metall uchlar turli shakllarda tayyorlangan va shakldan kelib chiqib, turli maqsadlarga, masalan, ayrimlari sovutlarni teshib o'tishga mo'ljallangan. O'qlar va ularning uchlari hunarmandlar tomonidan maxsus yasalgan. Shu bilan birga, mutaxassis bo'lmagan ba'zi kishilar ham o'z bilganlaricha kamon va o'q yasaganlar. Sovut va zirhlar (jiba, sovut, javshan) jangchi tanasini sovuq va o't ochar qurollardan himoya qilgan¹.

Hunarmandlar tomonidan tayyorlangan qalqonlar ham turli-tuman ko'rinishda bo'lgan. Yog'och qalqonlar qal'alar qamali vaqtida qo'shin huzurida bo'lgan hunarmandlar tomonidan tayyorlanishi mumkin edi. Metall bilan ziynatlangan, nisbatan ishonchli qalqonlar ham tayyorlangan. Lekin, xususan zamondoshlarining e'tirofiga ko'ra, yaxshi merganlar bo'lgan "Xorazm yigitlari tomonidan otilgan o'qlar" bunday qalqonlarni ham ba'zida teshib o'tgan. "Ular shunaqangi yaxshi otar edilarki, - deb yozadi Bobur, - ularning o'qlari bir necha marta qalqon va sovutni, ba'zida hatto ikki qat sovutni ham teshib o'tgan edi"².

Harbiylarning boshini dubulg'a himoya qilgan. Dubulg'a turli shaklda, kigizdan tikilgan, shuningdek, sovut to'ri osilgan yoki osilmagan metalldan yasalgan bo'lishi mumkin. Lashkar yo'l boshchilari jangovor otlarining tanasi zirh

¹ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарк. 2012, 13-б.

² Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент. 1989, 156-б.

bilan himoya qilingan. Ularning bir qismi xonlikka Yevropadan keltirilib, “farangiy” – “yevropalik” deb yuritilgan. Metallga o’ralib, yevropacha zirh yopilgan otga askar viqor bilan o’tirgan. Qurol-aslaha ustasining otiga yasaydigan qurol turidan kelib chiqib, kasbining nomi ham qo’shib aytilgan. Chunonchi, qalqonsoz usta, sadoqsoz usta, o’qchi usta va hakoza. “Maktubod va asnod” qo’lyozma to’plamiga kiritilgan insholardan birida Shayxim Qo’rchi degan kishining qo’rxona boshlig’i lavozimiga tayinlanishi haqidagi buyruq saqlangan. Bu hujjatda qayd etilishicha, o’qchi, kamonsoz, qilichsoz ustalar qo’rchining qo’l ostida qurol yasaganlar.

O’tochar qurollarning keng yoyilishi va takomillashuvi bilan chopadigan va otadigan qurollarning hususiyati ham o’zgarib bordi. O’q kiyim boshni nisbatan nisbatan oson teshib o’tganligi tufayli uning shakli bir necha marta o’zgargan. Lekin XVI asrda ham oldingi asrlarda ma’lum bo’lgan qurol va qalqonlardan foydalanishda davom etganlar. Yoy-andozlar esa, miltiq qo’llana boshlangandan keyin ham qo’shinning asosiy tayanchi bo’lib qolavergan. Jangda shuningdek, zarba berish uchun qo’llaniladigan qadimiy qurol-cho’qmordan ham foydalanilgan. U bir uchida tasma yoki zanjir bilan osilgan metall soqqa, ikkinchi uchida qo’lga taqiladigan ilmoq bo’lgan qisqa tayoq shaklida edi. Nayza-yog’ochdan yasalgan uchlik uzun qurol, tarqoq va zich hujum vaqtida qo’llanilgan. Nayzalar uzun va qisqa dastali bo’lgan. Otliq nayzabardorning harakati ko’p jihatdan otning kuchiga bog’liq edi. Harbiy janglarda, yurishlarda otlar va otliq qo’shin muhim rol o’ynagan. Qimmatbaho zeb berilgan qurollar kabi otlar ham hadya vositasi hisoblangan. Bundan tashqari janglarda qilichning ahamiyati ham katta edi. Shu bilan birga yaqin masofadagi jangda jangovar boltadan ham foydalanilgan.

Yozma manbalardan ma’lum bo’lishicha, jangchilarning deyarli hammasi qurol-aslaha va harbiy kiyim-bosh bilan ta’minlangan. Muhammad Solihning guvohlik berishicha, o’zbek sultonlari lashkari safidagi sovutsiz jangchilar o’z tanasini kigiz bilan o’ralib himoya qilganlar. Oliy hukmdorga mo’ljallangan urush qurol-yarog’lari qimmatbaho toshlar va nafis naqshlar bilan ziynatlangan. Xorazm hududidagi safari taassurotlarini tasvirlagan ingliz Antoniy Jenkinson shunday

yozadi: “26 dekabrda menga xon huzuriga kirish amr qilindi. Men unga rus podshohining maktubini topshirdim. Xon a’yonlari oldida mendan bizning miltig’imizdan otishga majbur etdi va o’zi ham ulardan otib, mashq qildi.¹” Ushbu xabardan ma’lum bo’ladiki, mahalliy to’fanglar Antoniy Jenkinson qo’lidagi miltiqdan farq qilgan. XVI-asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran qo’lda olib yuriladigan o’q otish qurollarini texnik jihatdan takomillashtirish qo’shinni, shu jumladan, yollanma lashkarlarni ham qurollantirishda muayyan rol o’ynay boshladi. O’rta Osiyo xonliklari qurolli kuchlari tarkibida kamonchilar mavqei ham samoqli bo’lgan. XVII-asrda ham kamon yengil otliqlarning ot ustida turib nishonga uruvchi tezotar qulay qurol bo’lib qolavergan.

XVI asrning oxirlariga kelib, artilleriya to’plarini yasash nisbatan takomillasha boshladi va harbiy xarakatlarda ham mahalliy ustalar tomonidan yasalgan to’plardan keng foydalanila boshladi. To’plar mustahkam, ular o’lchovi esa ko’p yoki kam darajada birxillasha bordi. Asr oxirlariga kelib, harbiy xarakatlarda asosan mahalliy ustalar yasagan to’plardan foydalanilgan. Yevropacha to’p-faranglar kamdan-kam hollarda ishlatilardi. Bu artilleriya to’plari ishlab chiqarishda muayyan siljishlar sodir bo’lganidan guvohlik beradi. Shu bilan birga, zarbzan, ra’d, zambarak, manjaniq, toshotar va boshqa avvalgi asrlarga mansub qurollar ham baravar ishlatilgan devor teshadigan hamda otadigan texnika va artilleriyalardan foydalanilgan. Harbiy texnikada yoqilg’i sifatida neftdan foydalanilgan². Qal’a devorlaridan turib urishganda dushmanga neft shimdirilgan latta o’ralgan yonuvchi o’qlarni yog’dirganlar, bu o’sha davr uchun “daxshatga soluvchi qurol” hisoblangan.

Ma’lumotlarga ko’ra, bo’lg’usi taxt sohiblari – valiahd shahzodalarga umumiy ta’lim berish bilan birga, yoshlikdan harbiy mashqlarga o’rgatish, jumladan, kamonlan o’q otish va otda yurishga o’rgatilgan. Xiva xonlari saroyida xonning voyaga yetmagan farzandlari tarbiyasi bilan shug’ullanuvchi mahsus otaliq lavozimi bo’lgan. Odatda, otaliqi bilan uning ustidan hukmronlik qilgan.

¹ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарк. 2012, 116-б.

² Шу асар, 120-б.

Shu narsa diqqatga sazovorki, otaliqqa shahzodaning davlat ishlari bilan yaxshigina umumiy ma'lumot olishi, ayni paytda, harbiy san'ati va jismoniy mashq turlarini ham yetarlicha darajada yegallashi uchun g'amxo'rlik vazifasi yuklatilgan. O'rta asrlarga mansub manbalarda kamondan o'q uzish bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar ta'rifi ko'plab uchraydi. U yoki bu a'yonga ta'rif berilar ekan, odatda, uning kamondan o'q uzish bo'yicha mahorati ham qayd etib o'tiladi. Jumladan yosh shahzodalarga "mohir mergan", "kamondan yaxshigina otadi" kabi ta'riflar berilardi. Shuningdek, nishonga qarab otishga mo'ljallangan jismoniy mashq inshootlari sadafxonalar (tir) to'g'risida ham ma'lumotlar uchraydi. Bu yerda kamondan o'q uzish bo'yicha harbiy musobaqalar o'tkazilgan. Odatda, muayyan balandlikka osib qo'yilgan qovoq, taxta yoki qog'ozga kamondan o'q otib, mashq qilingan. Bunday musobaqalar jangga tayyorgarlik sifatida yurishlar oldidan tez-tez o'tkazilib turilgan. Bundan tashqari, shahar tashqarisida maxsus ajratilgan tekis maydonlarda ot bilan musobaqalashish – milliy ot o'yinlari va poygalar ham o'tkazilgan. Otda yura olish O'rta Osiyo aslzodalarining o'zlariga hos xususiyati hisoblangan. Odatda otda yurish va otni boshqarish san'atini egallash aslzoda toifaga mansub yoshlarni o'qish-o'qitish dasturiga kiritilgan.

O'rta Osiyoda XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida xonliklarning ichki va tashqi siyosatida, o'zaro munosabatlarda harbiy qo'shin muhim ahamiyat kasb etgan. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib xonliklardagi qo'shin asosan nomuntazam xarakterga ega bo'lgan, ular ichki va tashqi xavfni bartaraf etishga qodir emas edi. Bu holatdan to'g'ri xulosa chiqargan ayrim hukmdorlar o'z qo'shinlarining muntazam qismlarini tashkil etishga harakat qildilar. Natijada, XIX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari qo'shini muntazam va nomuntazam qismlardan tashkil topgan harbiy kuchga aylandi. XIX asr boshlarida kelib, xonlik hukmdorlari o'z qo'shinlarini yaxshilash, uning tarkibida muntazam qismlarni tarkib toptirish borasida ko'p sa'y-harakatlarni amalga oshirdilar. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro va Qo'qonda kuzatilagni kabi, Xiva xonligida ham muntazam harbiy tashkil etish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

2. Xiva xonligida harbiy boshqaruv va mudofaa tizimining tarixiy asarlar va manbalarda yoritilishi

XVIII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib, Xiva xonligidagi harbiy kuchlar va qo'shinga e'tibor yanada kuchaydi. Xonlikda harbiy qo'shin O'rta Osiyoda o'zining kuchli va yengilmasligini ko'rsata boshladi. Ular endi janglarda o'rta asrlardagidek, faqat qilich, nayza, sovut, dubulg'a va o'q-yoy bilangina emas, balki yangi turdagi qurollarni ishlata boshladilar. Shuningdek, qo'shin ham yangi tartibda shakllantirila boshlandi.

Xivada harbiy yurishlar boshlansa, boshqa xonliklardagi kabi, bir necha hafta oldin yig'inlarda, bozorlarda bu haqida ogohlantirilgan. Qo'shinni xon yoki uning akasi yo ukasi boshqargan. Xon tomonidan buyruq chiqarilib, Xiva shahri atrofidan qo'shin to'planib yurish boshlangan. Qolgan joylardan 10-15 kun ichida qo'shin to'planib, xon kutib turgan manzilga orqalaridan yetib borganlar. Yurish vaqtida xon qo'shinni oziq-ovqat bilan ta'minlamagan, navkarlar asosan oziq-ovqatni o'zi bilan 1,5 oyga yetarli qilib olib chiqqanlar. O'ziga to'groq navkarlar 2-3 kishi birlashib, o'zlarining oziq-ovqati va boshqa yuklarini olib yurish uchun bitta tuya olganlar. Ammo qo'shin ichida kambag'al navkarlar ham bo'lib, ular kam miqdorda oziq-ovqat olganlar. Agar yeguliklar tugab qolsa, o'g'irlik va talonchiliklarga qo'l urganlar. Faqat yurish xon tomonidan uyushtirilgan bo'lsa, unda qo'shin qurol-yarog', pul bilan ta'minlangan.

XIX asr o'rtalariga kelib esa xonlikda muntazam qo'shin tuzila boshlandi. Xususan, 1850 yilga kelib Xivada muntazam piyoda va ko'ngilli otliq askarlarning yangi tarkibi shakllantirildi. Uning tarkibida 1 ta batalon bo'lib, ular ko'proq fors askarlaridan tashkil topgan. Bu batalonning soni 1000 kishi bo'lib, uning tarkibini bir necha o'nlik sarbozlar guruhi tashkil qilgan. Bu qo'shinning asosiy burchi xonni qo'riqlash bo'lgan.

XIX asr boshlarida viloyatlarning har birida 1000 tagacha navkarlar bo'lib, harbiy yurish vaqtida nomuntazam qo'shin to'plangan. 1869 yilga kelib Xiva xonligidagi muntazam qo'shin soni 15000 kishiga yetadi. Shundan 5000 kishi

piyoda, 10000 kishi muntazam otliq qo'shin bo'lgan¹. Yurish vaqtida bu ko'ngilli qo'shin ya'ni otliq navkarlar 5 tillodan pul olgan va jangda ularning oti o'lsa unga ham shuncha miqdorda pul berilgan. Munis o'zining "Firdavs ul-iqbol" asarida Muhammad Rahimxon I ning 1817 yil turkmanlar urug'i takalarga qarshi yurishda har bir navkarga asirga olgan odami uchun 10 tillo miqdorida pul to'langanligini qayd etadi².

Harbiy mansab egasi bo'lganlarga 10, 20, 50 va 100 tillo, hatto bundan ham ko'proq miqdorda pul to'langan. Harbiy mansab egasi bo'lgan biy 50 tillodan 100 tillogacha, yuzboshi esa 10 tillodan 20 tillogacha maosh olgan³. Xivada bo'lgan vengriyalik Arminiy Vamberi o'zining «Puteshestvie po Sredney Azii» asarida xonlikdagi qo'shin tarkibini guruhlarga bo'ladi va ularga xon tomonidan pul berilganligi hamda soliqlardan ozod etilganligini yozadi⁴. Ammo XIX asr ikkinchi yarmiga kelib, Xivada tuzilgan muntazam qo'shinning o'z kazarmalari bo'lib, harbiy qal'a atrofida joylashtirilgan. Ularga hukumat tomonidan bug'doy, oylik pul va yer berilgan. Muntazam qo'shindagi har bir sarboz (navkar)ga yiliga 5 tilla (20 rublgacha) va 30 dan 40 botmongacha un (botmon 7 pud 32 funt) un berilgan⁵. Ko'ngilli otliq qo'shin faqat harbiy holatda to'plangan va ularning katta qismini turkman va qoraqalpoqlar tashkil etgan. 1819-1820 yillarda Xivada bo'lgan, N.N.Muravyev qo'shin sonini 12000 deb yozadi⁶. Lekin bu ma'lumotni aniq deb bo'lmaydi. Chunki chetdan kelgan har bir kishining orqasidan xon tomonidan agentlar qo'yilib, ularning nima ish qilayotganini tekshirib turganlar. Shu boisdan, N.N.Muravyev ham xonlikning hamma joyiga kirish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Xonlikdagi qo'shin soni esa vaziyatga qarab o'zgarib turgan.

¹ Туркестанский сборник Обзор доступов к Хивинскому ханству и краткия сведения о нем. (военно-статистический очерк). Том 82. -СПб., 1873, С.230.

² Материали по истории Туркмен и Туркмении. XVI-XIX вв. (Иранские, Бухарские и Хивинские источники). Том-2. М.-Л., 1938, С.400.

³ Иванин М.И. Хива и Аму-даря. -СПб., 1873, С.56.

⁴ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. М., 2003, С.249.

⁵ Туркестанский сборник Обзор доступов к Хивинскому ханству и краткия сведения о нем. (военно-статистический очерк). Том 82. -СПб., 1873, С.231.

⁶ Муравев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. Часть. 2 -М., 1822, С.108.

XIX asr boshida xonlikda 20000 gacha otliq qo'shin to'plash imkoni bo'lgan bo'lsa, 1855 yilda xiva xonligida 20 mingdan 35 minggaacha otliq qo'shin bo'lgan¹. Arxiv ma'lumotlarida yozilishicha, Toshhovuzli Olimboy yuzboshining 25 nafar navkariga 25 dona toza nayzali berdanka (miltiq) va yuzboshining o'ziga bir dona besh otar berilgan. Ushbu navkarlarning har biriga 40 tildan bir ming tillogacha puli berilgan². Xiva xonligidagi navkarlarning kiyimlari qizil tik gazlama yoki matoli kalta kamzul, shalvor, qo'y terisidan qilingan bosh kiyim va katta etikdan iborat bo'lgan. Qo'shindagi yuzlik qismga bo'lingan piyoda askarlar qizil kamzul va qora shalvor kiygan, boshqa yuzlikdan tashkil topgan. Qo'shin esa buning teskarisi, ya'ni, qora kamzul va qizil shalvor kiygan hamda boshlariga bir hil qo'y terisidan qilingan telpak va oyoqlariga yechki terisidan tikilgan etik (ichish) kiyilgan.

XIX asr boshlarida harbiylarning asosiy quroli miltiq, qilich, nayza, o'q-yoy va piltali miltiq bo'lib, ularning qurollanish holati yomon ahvolda bo'lgan. Ular o'z oilasini boqish uchun ayrim hollarda ular bunday qurollarni natlida yoki pul bilan sotib olganlar. O'sha vaqtda Xivada bo'lgan rus sayyohlari Xiva qo'shini haqida harbiy ish bo'yicha hech qanday tushunchaga ega emas, degan ma'lumotni keltiradi. Ammo bu berilgan ma'lumotlar bir tomonlama bo'lib, qo'shinda mergan (o'qchi) lar ham bo'lib ular nishonni bexato urganlar. 1871 yil Rossiya yurishi arafasida esa Xivadagi sarbozlar (navkarlar)ga Hindistondan bir qancha ancha yaxshi miltiqlar olib kelinadi. Xiva harbiylari qisqa vaqt ichida intizomga, taktik bilim olishga, jangovar tayyorgarliklarini oshirishga va harbiy xo'jalikni shakllantirishga erishadi³. Biroq bu narsalar hamma joyda ham bir hil emasdi. Ayrim joylarda qo'shinga bo'lgan e'tibor past edi.

XIX-asrning birinchi yarmida Buxoro va Qo'qonda kuzatilgani kabi, Xiva xonligida ham muntazam harbiy kuchlarni tashkil etish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Xonlikda umumiy soni 2 ming kiShilik muntazam qo'shin tuzishga erishildi. "Xon navkarlari" deb atalgan bu qo'shinning zimmasiga

¹ Наши соседи в Средней Азии. Хива и Туркмения. -СПб., 1873, С.131.

² Шу ерда

³ Наши соседи в Средней Азии. Хива и Туркмения. -СПб., 1873, С.135.

mamlakatda tinchlik hukm surgan davrlarda xon va uning oilasini qo'riqlash vazifasi topshirilgan edi. Xon tomonidan bu qo'shinga bir qator imtiyozlar berilgan edi. Xususan, bu qo'shin navkarlarini oliy hukmdor Xiva atrofidan ma'lum miqdordagi yer maydoni va maosh bilan ta'minlab turgan. Xuddi shunday ta'minotga qo'shinning yuqori mansabdorlari g'am sazovor bo'lganlar. Xiva xonligida Buxoro va Qo'qon davlatlarida bo'lgani kabi, muntazam qo'shin bilan bir qatorda, xarbiy xarakterli avj olgan davrlarda to'planadigan halq lashkari ham mavjud edi. Bunday lashkarning asosini otliq askarlar va piyoda askarlar tashkil etgan edi. XIX-asr arxiv ma'lumotlaridan ayon bo'lishicha, xonlikda bunday askarlarning soni 9-10 ming atrofida bo'lgan. Ularga xon tomonidan yerlar in'om qilinar hamda ular turli soliq va majburiyatlardan ozod qilingan edilar. O'rta Osiyo xonliklarida xarbiy kuchlarni boshqaruvning muayyan tizimi shakllangan edi. Bu tizimning eng yuqori pog'onasida tabiiy ravishda oliy hukmdor turar edi. U qo'shinning rasman oliy qo'mondoni sanalsa-da, ko'p hollarda amalda qo'shinga boshchilik qilish boshqa amaldorlar orqali amalga oshirilgan. Buxoro amirligida qo'shin parvonachi tomonidan boshqarilgan bo'lib, u bosh qo'mondon mavqeiga ega bo'lgan hollarni tasdiqlovchi holatlar ham tarixiy adabiyotlarda ko'plab topiladi¹. Xiva xonligida esa muntazam qo'shin yasovulboshi tomonidan boshqarilar edi. Qo'qon xonligida qo'shinni boshqarish mingboshi zimmasiga yuklatilgan edi. Xonliklarda boshqa harbiy unvonlar deyarli bir xil bo'lgan. Buxoro va Qo'qon xonligiga oid ma'lumotlar tahlili shundan darak beradiki, XIX-asr birinchi yarmida xar birdavlatda ham besh yuz askardan iborat bo'linmaga pansodboshi, yuz askarga – yuzboshi, ellik askarga – panjaboshi, o'nlikka – dahboshi rahbarlik qilgan².

Bu davrda uchta xonlik o'rtasida bo'lib turgan ichki nizolar, qo'shni davlatlarning bosqinchilik yurishlari tufayli xonliklarda muntazam harbiy qo'shin mavjud edi. XIX-asr boshlarida Xiva xonligida harbiylarning asosiy quroli miltiq, qilich, nayza, o'q-yoy va piltali miltiq bo'lib, ularning qurollanish holati yomon

¹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. -М: Наука. 1975, С.139.

² Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимга даврдан хозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 135-б.

ahvolda bo'lgan. Shu davrda Xivada bo'lgan rus sayyohlari Xiva qo'shini haqida harbiy ish bo'yicha hech qanday tushunchaga ega emas degan ma'lumotlarni keltiradi. XIX-asr o'rtalariga kelib xonlikda muntazam qo'shin tuzila boshladi. Bu davrga kelib Xiva xonligi qo'shinida yangi turdagi qurollar ishlatila boshladi va qo'shin ham yangi tartibda shakllantirildi. Xivada harbiy yurishlar boshlansa, boshqa xonliklardagi kabi, bir necha hafta oldin yig'inlarda, bozorlarda bu haqida ogohlantirilgan. Xonlikda qo'shin asosan navkarlardan tuzilgan. Navkarlar soliqlar va turli majburiyatlardan ozod qilingani uchun burch va vazifalariga sidqidildan yondashishgan. Xiva xonligida navkarlarning kiyimlari qizil tik gazlama yoki matoli kalta kamzul, shalvor, qo'y terisidan qilingan bosh kiyim va katta etikdan iborat bo'lgan. Navkarga davlat tomonidan 20 tanob yer berilgan va bundan kelgan daromad navkarga tegishli bo'lgan. Bundan tashqari urushda ko'rsatgan jasorati uchun turli xil buyumlar, pul va x.k. bilan taqdirlanib turilgan. Xususan, Xiva xonlari arxividagi xujjatlarning birida ko'rsatilishicha, 1851-1852 yilda jamoa boshlig'i bo'lgan Ahmadxon sariqlarga qarshi jangda o'zini ko'rsatgani uchun xon tomonidan har bir jangchisiga 4 ta miltiq, 3 ta qilich va 16 tilladan pul mukofoti oladi¹. Xonlikda ko'ngilli otliq qo'shin ham mavjud bo'lib, u faqat harbiy holatda to'plangan. Uning katta qismini turkman va qoraqalpoqlar tashkil etgan. XIX-asr boshida xonlikda 20 000 gacha otliq qo'shin to'plash imkoni bo'lgan bo'lsa, 1855-yilda Xiva xonligida 20 mingdan 35 minggacha otliq qo'shin bo'lgan². Xonlikda piyoda to'pchilar guruhi bo'lib, ularning soni 24 kiShi bo'lgan³. Bu to'pchi navkarlar mohirlik bilan nishonga urganlar otgan o'qlari kamdan kam holatda xato ketgan. Xonlik ichkarisida isyon, qo'zg'olonlar yuz bergan taqdirda navkarlar xon tomonidan hamma ehtiyojlar bilan ta'minlangan. XIX-asr o'rtalaridagi ma'lumotga ko'ra Xazorasp, Beshariq va Pitnak mavzellarida 2396 navkar, qolgan hududlarda esa 6445 navkar bo'lgan. Xonlikdagi yirik amaldorlarning aksariyati harbiy

¹ Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. -Л, 1940, С.175.

² Наши соседи в Средней Азии. Хива и Туркмения. -СПб., 1873, С.131.

³ Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. -Л, 1940, С.194.

kishilar bo'lib, ularning har biri sarkarda etib tayinlanishi mumkin edi. Muxammad Rahimxon II 1855-1856 yillarda xonlikda "Amirul-Umaro" lavozimini ta'sis etgan va o'z akasi Sayid Maxmud to'rani bu ishga tayinlagan¹. Shu davrda bu mansab eng kattasi bo'lib, Xazorasp, Pitnak, Sho'raxon viloyatlari uning ixtiyoriga berilgan. Bu lavozimdagi shaxs 500 tillo maosh olgan. Xonlikning harbiy tizimida yasovulboshining o'rnini katta bo'lib, nufuzli lavozimlardan biri bo'lgan. Yasovulboshi yuqori sarkarda hisoblanib, uning vazifasi xonning farmoniga muvofiq o'z vaqtida qo'shinni jangga boshlab borish bo'lgan. Tinchlik vaqtida yasovulboshilar saroydagi turli qabul marosimlarida ishtirok etganlar. Qamoqxonadagi tartib, xonlikdagi ichki ishlar shuningdek, xonning qo'riqlash ishlari ham uning zimmasida bo'lgan. Mahfiy farmonlar ham yasovulboshi qo'lida bo'lgan. Xonlikda ikki yasovulboshi bo'lib, biri yovmut turkmanlariga, ikkinchisi esa chovdurlarga qo'mondonlik qilgan. Ikkita yasovulboshining har birida bir necha yordamchi bo'lib, ular "yasovullar" deb nomlangan. "Riyoziy ud-davla" asaridan ma'lum bo'lishicha, 1255/1839 yil 10-noyabr kuni Olloqulixon janglar vaqtida vafot etgan. Muhammad Niyoz yasovulboshining o'rniga uning o'g'li Raxmatullani yasovulboshi qilib tayinlagan. Raxmatulla yasovulboshi sarkarda bo'lib, uning ixtiyorida turkmanlarning yovmud urug'idan shakllangan ko'p ming kishilik guruh bor edi. U qatnashmagan hech bir harbiy safar bo'lmas edi. Chunonchi, Raxmatulla yasovulboshi 1842-yili Olloqulixonning Chorjo'yga qilgan urush safarida qatnashgan. Shuningdek, yasovulboshilardan 51 yil davomida (o'limiga qadar 1890-yilgacha) yetti xon saltanatida halol xizmat etgani ham Raxmatulla yasovulboshidir. M.Yo'ldoshev ma'lumotlariga qaraganda, "Yasovulboshiga yasovullar, mirshablar, shotirlar, eshik oqolari itoat qilardi"². Xonlikda ichki tartibni saqlash mirshablar zimmasida edi. O'g'rilarni ushlab, o'zaro janjal va nizolarni hal etish, shuningdek, qozi hukmiga muvofiq o'g'rilarni jazolash, zindondagi bandalarni qo'riqlash ishlari bilan ham mirshablar shug'ullangan. Ular shahar bosh darvozalarida turib kelib-ketuvchilarni ham

¹ Давлатёр Р, Шихназар М, Нусратулла Ж. Феруз шох ва шоир қисмати. -Т.: Хива. 1995, 13-б.

² Ўйдошев М. Хива хонлигида феодал ер егаллиги ва давлат тузилиши. -Т.: Ўздаврнашр, 1959, 282-б.

kuzatib turganlar. Ana shu xizmatlari uchun ularga o'rtacha 4-5 tillo maosh berilardi. Safarbar etilgan paytlarda mirshablar askarlar bilan birga harbiy ishlarda ham qatnashgan. Xonlikdagi hamma shahar va dahalarning o'z mirshablari bo'lgan. Xiva xonligi arxiv xujjatlariga ko'ra, mirshablar ozchilik bo'lib, maoshi ham kam bo'lgan. XIX-asr o'rtalarida poytaxtdagi Paxlavon darvoza, Shayx darvoza, Maxmud ota darvoza, Hizr bobo darvozalarida jami 29 mirshab hizmat qilgan¹. Xon qo'shinida bosh shtab boshlig'i vazifasida bo'lmasada, shunga o'xshash vazifani naqib lavozimidagi shaxs bajargan. Naqiblik faxriy unvon bo'lib, bu lavozimga madrasa ta'limini to'liq olgan, dunyoviy ilmlardan boxabar, diniy ilmni a'lo darajada biladigan va eng asosiysi payg'ambar nasliga mansub kishilar saylangan. Rasmiy qabul marosimlarida naqib xonning so'l tomonida birinchi o'rinda o'tirgan². Xatto shahzodalar ham undan keyin o'tirganlar. Urush xarakatlari vaqtida xon farmoniga muvofiq tuzilmalarni qurollantirish va ularni joylashtirish, qo'shimcha qo'mondonlar tayinlash vazifasini naqib bajargan. Naqiblarning o'z navkarlari bo'lib, hamma harbiy safarlarda qatnashardi. Naqib xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo'lib, safarlarda unga hamrox bo'lardi. Bu lavozimdagi shaxs 100-150 tillo miqdorida maosh olgan. Muhammad Rahimxon II davrida naqiblik lavozimida Ismoil naqibho'ja faoliyat yuritgan bo'lib, u 1873-yildagi "Gandimyon shartnomasi" ni imzolashda ishtirok etgan.

XVIII-asr oxiri va XIX-asr boshlariga kelib Xiva xonligida qo'shinning muntazam turi shakllantirilib, harbiy kuchlar va qo'shinga e'tibor yanada kuchaydi. Harbiy tizim tartibli yo'lga qo'yildi.

¹ Бекмухаммад У. Ҳарбий хийлалар. -Т.: Янги аср авлоди. 2008, 38-б.

² Бартолд В.В. Церемония при дворе узбекских ханов в XIX в.// Записки РГО. -СПб. 1909, С.301.

3. XVII–XVIII asrlarda Xiva xonligidagi harbiy ish tarixi.

O'rta Osiyo xonliklarida muntazam qo'shinning xizmat muddati cheklanmagan edi. Askarlar mamlakatda tinchlik hukm surgan paytlarda o'z oilalarida yashab, xunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanganlar, yerga ishlov berganlar. Xonliklardagi xukmdorlar qo'shinning harbiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda oziq-ovqatga alohida e'tibor qaratishgan. Bunda moddiy ne'matlar - don-dun, go'shi, yog' va boshqalar bilan ta'minlanishiga e'tibor berilgan. O'rta Osiyo xonliklarida harbiylarning turli soliq va majburiyatlardan ozod etishga xarakat qilingan. Xususan, ularning yerlarida yetishtirilgan hosilning bir qismini hiroj sifatida to'lashlari lozim bo'lgani holda, ular bunda soliqni to'lashdan ozod etilgan edilar. Odatda bunday imtiyozlardan harbiylarning turli mansabdorlari foydalanar edilar. Xiva xonligida harbiylarni taqdirlash borasidagi an'analarga ko'ra, janglarda alohida xizmat ko'rsatgan harbiylar, harbiy mansab va unvon egalari ma'lum miqdordagi pul, yer, mol-mulk va qimmatbaho buyumlar bilan taqdirlanganlar. Jumladan harbiy xarakatlar davrida o'zini ko'rsatgan harbiylar ularning mansabi va xizmatiga mos ravishda turli-tuman tortiqlar: zarbof shoyi, ip matodan tikilgan to'nlar, sallalar, pichoq, kamar, qilichlar bilan mukofotlanganlar. Yuqori mansab egalari oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamar, pichoq va qilichlar taqdim etilgan¹. Xiva xonligida qo'shinning sog'lig'ini ta'minlash borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Harbiy xarakatlar vaqtida xarakatdagi qo'shinning talofat ko'rgan askarlarga tibbiy yordam markazlashgan tarzda amalga oshirilmagan. Harbiy xarakatlar chog'ida sog'ligiga zarar yetgan askarlarga davolanish uchun xon xazinasidan ma'lum miqdorda pul ajratilgan. Masalan, Xiva xonligidagi 1866-1867 yillarga oid xujjatlardan birida, harbiy xarakatlar davrida yarador bo'lgan Ibodulla ismli shaxsga – besh tilla, Boltaniyoz Bahodir ismli shaxsga – besh tilla shuningdek, yarador bo'lgan “o'ttiz to'rt

¹ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимга даврдан хозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 137-б.

mergan”ning har biriga uch tilladan pul ajratilgani qayd etilgan¹. Odatda yarador bo’lgan shaxslar bu pullar bilan tabiblarga murojaat etar edilar. Xiva xonligiga oid bu ma’lumotlardan ayon bo’lishicha, harbiylar jang davomida o’z otini yo’qotganida ham tovon puli to’langan holatlar ham bo’lgan. O’lgan ot uchun askarga XIX-asr 60-70 yillariga oid ma’lumotlarga ko’ra o’n tilla miqdorida tovon puli to’langan².

Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra, harbiy xarakatlar davomida qo’shinning yurishi uchun zarur narsalar arava, chodir va boshqa narsalar ham xon xazinasi tomonidan qoplangan. Bunday vaqtlarda qo’shin bilan birga savdogarlar ham yurgan. Ular harbiy xarakatlar vaqtinchalik to’xtagan paytlarda bozor tashkil qilganlar. Tashkil etilgan o’ziga hos bu bozordan askarlar harbiy yurishga o’zlari bilan olib ketadigan oziq-ovqat, yem-hashagi tugagan taqdirda, bu mahsulotlarni sotib olganlar. Bunday bozorlarda ko’pincha turli kiyim-bosh, jumladan, to’nlar bilan ham savdo qilingan. Bunday mahsulotlarni, asosan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga qurbi yetmagan askarlar ko’p hollarda och-nahor qolib ketganlar. Bu o’rinda shuni qayd etish lozimki, hunarmand va savdogarlar barcha yurishlarda ham harbiylarga hamroh bo’la olmas edilar. Shuningdek qo’shin bilan birga turli ishchilar ham birga yurar edi. Ular yer qazish, yo’llarni, ko’priklarni ta’mirlab, to’g’irlab borishlari lozim edi. Xiva xonligida XIX asr o’rtalariga kelib, qo’shinning qurol yarog’i orasida o’tochar qurollarning salmog’i oshdi. Xiva xonligida to’plarni soz ahvolda saqlashga javobgar bo’lgan shaxslar yurishlarda asirga tushgan shaxslardan saralab olingan. Xiva xonligiga oid ma’lumotlarning birida “To’pchi do’g’malarga” yigirma tilla berilgani qayd etib o’tiladi³. Xonlikda turli qurol-yarog’lar ishlab chiqaruvchi ustaxonalar ham mavjud edi. Ular jumlasiga o’tochar qurollar – miltiqlar va to’plar ishlab chiqaruvchi ustaxonalarni kiritish mumkin. Harbiy qurollar ishlab chiqarish bilan bog’liq hunar turlaridan biri porox ishlab chiqarish bilan bog’liq edi. Poroxni mahalliy halq tomonidan “doru”

¹ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 138-б.

² Шу ерда.

³ Шу асар, 140-б.

deb atalgani uchun, bu hunar turi bilan bog'liq hunarmandlar “dorukash” deb atalgan. Ular ham miltiqsozlar kabi davlat tomonidan ma'lum turdagi moddiy ne'matlar, shu jumladan, bug'doy bilan ham ta'minlanganlar. O'rta Osiyo hududida turli harbiy uskunalar, qurol-yarog'lar ishlab chiqarish uchun zarur xom ashyolar yetarli edi. Qo'qon va Xiva xonliklari porox ishlab chiqarishda zarur bo'lgan oltingugurt va selitruga juda boy edi¹.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O'rta Osiyo xonliklarida aholi yashaydigan manzillar atroflarini devorlar va o'z navbatida, ularning ham atroflarini suv to'ldirilgan handaqlar bilan o'rab olish an'anasi amalda keng qo'llanilgan. Bu o'rinda so'nggi o'rta asr shaharlarini misol keltirish mumkin. Shahar devorlari ular atrofidagi handaqlar bilan birgalikda eng yaxshi himoya vositasi hisoblangan. Bunga XVIII asr muarrixi Mulla Maxdixon Astrabodiyning Xiva xonligiga qarashli Xazorasp haqidagi yozgan quyidagi so'zlarini eslash o'rinlidir: “Bu qal'a handaqqa ega bo'lganligi va mahkam devor bilan mustahkamlanganligi uchun...bu qal'aga hujum qilish sog'lom fikrdan uzoq ish edi”². Muarrixning qayd etishicha, aynan shuning uchun Eron Shohi Nodirshoh (1736-1747) XVIII asr 40-yillarida qal'ani ishg'ol qilishdan voz kechgan. XVIII asr muarrixining bu fikrini XIX asrga oid quyidagi ma'lumot ham tasdiqlaydi. Unga muvofiq, Xazorasp “Xivadan keyin xonlikning eng yaxshi himoyalangan shahri hisoblangan; ancha baland va qalin devorga ega” edi³. Xiva xonligi shaharlarining ham devorlar bilan himoyalanganligini XVIII asrda Xivada bo'lgan rus tadqiqotchisi I.Muravinning yozishicha, “Xivaliklar xukmronligi ostida sakkizta loydan qurilgan shahar bor; ularning devorlarining balandligi besh va olti sarjin; atrofida kanallar (handaqqlar – G.A.) qazilgan”⁴. Bu ma'lumotni XIX asr 20-yillariga oid materiallar ham tasdiqlaydi. Ularga ko'ra, Xiva xonligining yirik

¹ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимга даврдан хозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 142-б.

² Мирза Мехди-хан Астрабадский. Тарих-и Надири. Перевод извлечений под ред. А.Н.Болдырева// МИТТ. Т. II, С.138.

³ Очерки Хивинского ханства// Туркестанский сборник. Т. 72. –СПб. 1873, С.5.

⁴ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимга даврдан хозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 147-б.

shaharlari jumlasiga Hazarasp, Xonqa, Gurlan, Xo'jaylilar ham kirgan bo'lib, o'sha yerdagi boshqa shaharlar kabi, ularning hammasi loy devor va xandaqlar bilan o'ralgan edi.

Xonlik poytaxti – “Xiva zabt etib bo'lmaydigan qal'a” sifatida mashhur bo'lgan ikkita devorga ega edi. Shaharning asosini tashkil etgan ichki shahar – Ichanqal'ani qamrab olgan devor haqida 1753 yil Xivada bo'lgan rus savdogari Danila Rukavkin shunday ta'riflaydi: “Shahar to'rtburchak shaklidagi loydan qurilgan devor bilan himoyalangan; burchaklarda, shuningdek, xavfli yerlarda qorovullar uchun budkalar (minoralar) o'rnatilgan”¹. XIX asr 20-yillarida esa “Xiva shahri, atrofi uchta darvozali g'isht devor bilan o'ralgan bo'lib, kengligi, 10 sarjin²”, chuqurligi 2 sarjin Amudaryo suvi bilan to'ldirilgan kanal (xandaq) bilan o'ralgan”, - deb qayd qilinadi³. Xivaning tashqi qismi – “Dishan qal'a” devori Olloqulixonning 1842-yilda Buxoroga yurishidan bir oy oldin qurilgan edi. Bu devorning atrofi ham xandaq bilan o'ralgan bo'lib, suv bilan to'ldirilgan edi. Mamlakatdagi siyosiy hayot taqozosi hamda tashqi xavf kuchaygan davrlarda ayrim kichik shaharlar va qishloqlar ham devor bilan o'rab olishga xarakat qilingan. Jumladan, XIX asr 40 yillarida Buxoro amirligi bilan munosabatlari keskinlashib ketgan bir vaziyatda Xiva xoni Olloqulixon ayrim Xiva shaharlarini devorlar bilan o'rab olish haqida buyruq bergan. Masalan, Pitnak Shahri Olloqulixon buyrug'i bilan 1842 yilda devor bilan o'rab olingan⁴.

Shuningdek, shaharlar va aholini shaharga yaqinlashgan dushmandan himoyalash maqsadida zarurat tug'ilganida uning darvozasi yopib qo'yilar edi. XVIII asrning 40 yillarida Xivada bo'lgan D.Gladishevning yozishicha, Eron shohi Nodirshohning Xiva xonligiga hujumi munosabati bilan Xiva darvozalari “tuproq bilan berkitib qo'yilgan edi”⁵. Xiva xonligida mamlakat chegaralarini qo'riqlashga

¹ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 147-б.

² Саржин – 2,134 м.

³ Краткое описание Бухари и Хиву // Сибирский вестник. 1823. СЧ. 1, С.13.

⁴ Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства. С.103.

⁵ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 149-б.

katta e'tibor berilgan. Davlat chegaralarida ham ma'lum miqdordagi harbiylar saqlangan. Masalan, XIX asrning 50-70 yillarida Xiva xonligida chegarada turgan harbiylarga shu hududdan yer berilgan. Shuningdek, ularga maosh ham to'langan. Xonlikda chegaradagi harbiylar boshlig'i – qoravulbegi deb atalgan. Shuningdek, mamlakat chegaralarida qo'shinni saqlash uchun bir qancha qal'alar bunyod etilgan edi. Bu qal'alarda joylashgan qo'shinning asosiy vazifasi turli savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minlash, mamlakatni tashqi kuchlar tajovuzidan asrashdan iborat edi. Tashqi kuchlar xujumiga birinchi bo'lib javob beradigan bunday qal'alar asosan yirik xalqaro karvon yo'llarida bunyod etilar edi. Turli hajmdagi va mudofaa qobiliyati jihatidan ham turlicha bo'lgan bu qal'alarda xar hil o'tochar va sovuq qurol bilan qurollangan qo'shin joylashtirilgan bo'lib, ularda turli to'plar joylashtirilgan. Xonlik qo'shinida muayyan intizomni saqlab turishga xarakat qilingan. Lekin ko'p hollarda, ayniqsa, harbiy xarakatlar avj olgan pallada qo'shin intizomini bir maromda ushlab turishga erisha olmaganlar. Harbiy yurishlarda muvaffaqiyatga erishgan qo'shin tomonidan talonchilik qilish holatlari uchrab turgan. Xonliklar qo'shini o'zining tug'i-bayrog'iga ega bo'lgan. Xususan, XIX asr Xiva tarixchisi Bayoniy Xiva xoni Muhammad Rahimxonning (1848-1849) yillardagi harbiy yurishlari haqida yozib, qo'shin oldida Pahlavon ota, Eltuzar xon, Muhammad Rahimxon va boshqalar 5 ta davlat tug'i-bayroqlarni ko'tarib borganliklari, shuningdek, uning ketidan 25 urug'-qo'ng'irotliliklar, qoraqalpoqlar, yovmudlar, chovdarlar, mang'itlar, qipchoqlar va boshqalar ham tug'i-bayroq ko'tarib borilganini qayd etadi.

Xiva xonligida navkarlar deb yuritilgan otliq qismlar asosan turkmanlardan iborat bo'lib, eng jangovar qism hisoblangan. Otliq qo'shin miltiq, qilich va xanjar bilan qurollangan. Sarbozlar deb yuritilgan piyodalar esa asosan o'zbeklar, qoraqalpoq va turkmanlardan tashkil topgan. To'pchilar, (yani artilleriya qismi) misdan quyilgan to'pga ega bo'lib, ularning safida afg'onlar, hindlar ham xizmat qilgan. Xonning alohida o'z shaxsiy gvardiyasi – xon navkarlari Xiva shahriga joylashtirilgan. Ular shahar atrofida o'z mulklariga ega bo'lgan. Xon navkarlari yer-suv, maosh bilan ta'minlangan, soliq va majburiyatlardan ozod bo'lgan. Urush

harakatlari mobaynida yaralangan navkarni davlat moddiy jihatdan ta'minlangan. Hatto yaralangan otlar uchun ham davlat tomonidan tavon to'langan, chunki navkarlar xizmatga o'z otlari bilan kelgan. Halok bo'lgan navkarning oilasi nafaqa bilan ta'minlangan, zaruriyat bo'lganda uning oilasiga pul o'rniga qul berilgan¹.

Umuman, xonlikda navkarlar uchun katta imtiyozlar yaratilgan, zaruriyat bo'lganda ularning xo'jaliklariga ham yordam uyushtirilgan. Ayniqsa, urushlarda jasorat ko'rsatgan navkarlarga alohida e'tibor ko'rsatilib, ular pul, yer-suv, mulk, qimmatbaho buyumlar, masalan to'nlar, qilich, pichoqlar bilan taqdirlanganlar. O'tgan asrlarda mavjud bo'lgan an'anaga ko'ra xonlikda urush paytida xalqdan lashkar to'plangan. Urushga safarbar etilgan oddiy xalqdan tuzilgan qo'shin "qora cherik" deb nomlangan. Xon navkarlariga Xiva shahri atrofidan yer va maosh belgilangan. Xonlikda har bir yirik shaharning o'z qal'alari va ularni mudofaa qiladigan harbiy kuchlari, har bir beklik va hokimlarning o'z navkarlari bo'lgan. Bu kuchlardan tashqari xonlik chegaralarini chegara qo'shinlari qo'riqlab turgan.

Xon tomonidan boshqarilgan qo'shindagi harbiy lavozimlar bu davrda ham o'tgan asrlar ko'rinishida saqlab qolingan. Xiva xonligidagi harbiy mansabdorlar vazifasi quyidagicha taqsimlangan: Amir-ul-umaro – qo'shinni xon farmoni bilan tanishtirgan; yasovulboshi – xon farmoni bilan qo'shinni urushga boshlab borgan; mingboshi – 1000 nafardan iborat harbiy bo'linma boshlig'i; yuzboshi-100 nafardan iborat harbiy bo'linma boshlig'i; qatovul – harbiy qal'alar holatiga javobgar bo'lgan; sarxan-mudofaa devorlari va istehkomining qurilishiga mas'ul bo'lgan; qorvulbegi – chegara qo'shinlarini boshqargan; naqib – qo'shin tuzish, uni qurollantirish ishlari bilan shug'ullangan; naqib urush vaqtida qo'shinning o'ng va so'l qanotlaridagi, orqa va old qismi hamda markazi va pistirmadagi askar holatiga javobgar bo'lgan. Yasovulboshidan keyingi harbiy darajada mingboshi va yuzboshi turgan. Yuzboshi yuzliklarni va mingboshi ming kishilik qismlarni boshqarganlar. Xonlikda eng katta maosh (500 tillo) yasovulboshiga berilgan. Naqiblar 100 tildan haq olgan. Xiva xonligi qo'shinlarining qurollari bu davrda ham asosan miltiq, qilich, qalqondan iborat edi. Miltiqlar asosan Xazoraspdagi

¹ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. -Т.: Ўздаврнашр. 1959, 282-б.

mahalliy quolsiz ustalar tomonidan tayyorlangan. XIX asr ikkinchi yarmiga kelib, xonlik qo'shinlarida rus va ingliz miltiqlari paydo bo'la boShlaydi. Rossiya qo'shinlari tajobuzi arafasida xonlikda 21 ta to'p mavjud edi¹. Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgach, uning qo'shinlari tugatilib, xon huzurida bor-yo'g'i taxminan 1500-2000 kishilik navkarlar saqlab qolingan. Ular asosan saroyni qo'riqlash, mahalliy aholini itoatda saqlash, soliqlarni to'plash, soqchilik ishlaridagina xizmat qilgan bo'lib, harbiy qo'shinlikka da'vo qila olmas edilar. Shulardan 400 navkar xazina hisobidan xon saroyida saqlangan². Xon o'z navkarlarini qurollantirish uchun Turkiston general-gubernatorligi orqali Rossiya harbiy vazirligidan ko'p iltimoslardan so'ng rus berdankalarni olishga muvaffaq bo'lgan. Aslida chor hukumati Xiva xonligini qurol bilan ta'minlash, qurolli kuchlarni kuchaytirishdan manfaatdor emas edi. Bu navkarlar xonlikda saroy qo'riqchisi vazifasini bajarganligi uchungina ularga qurol berilgan. Qolgan navkarlar xizmatga o'z otlari va qurollari bilan kelgan. Ularning qurollari juda eski bo'lib, zamon talablariga javob bermas edi. Xonlikning Rossiya imperiyasi tortib olgan qismida, yani Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlardagi Amudaryo bo'limi markazida Petro-Aleksandrovska qal'asi barpo etilgan bo'lib, bu yerda joylashgan rus harbiy qismlari Xiva xonligidagi g'alayonlarni bostirish, mahalliy aholini itoatda saqlab, uning qarshiligiga yo'l bermaslik, umuman, Xiva xonligini imperiyaga tobeligini ta'minlab turishda katta rol o'ynardi.

XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida hunarmandchilik turlari ko'paya bordi. Rossiyadan keltirilgan cho'yanlardan birgina Xiva atrofida 6 ta cho'yan eritish ustaxonasi ish yuritgan. Ustaxonalarda 2-3 kishidan 16-18 kishigacha ishlagan. Bu yerda ish nihoyat og'ir, ibtidoiy usulda bo'lib, ish sur'ati esa past bo'lgan. Yollangan ishchilarning oyligi 3 so'mdan oshmagan, shuning uchun ham kishilar temirchilikni hoxlamas edi. Natijada sanoat rivojlanmadi. 40-yillarda rus asirlari va qochoqlari miltiqlar yasay boshladilar. Biroq temir, cho'yan yetishmagani uchun miltiqlar oz ishlab chiqarilar, qo'shinlar asosan yog'och qurollardan

¹ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. –Т.: Адабиёт ва санъат, 58-б.

² Военно-статистическое описание. Хивинского ханства. Составлен Капитаном генерального штаба Гиршфельдом. Т., 1903. С. 19-53.

foydalanishardi. O'rta Osiyo xonliklari moliyaviy qiyinchiliklar tufayli qo'shinlar sonini ko'paytirishga, qurollarni takomillashtirishga qiynalishgan. O'rta Osiyo xonliklarida harbiy o'quv yurtlari bo'lmagani tufayli qo'shinlar u yoqda tursin, hatto boshliqlar ham harbiy ta'lim ko'rmaganlar. Harbiy kuchlarga hos o'nboshi, ellikboshi, yuzboshi, ponsodboshi va ming kabi unvonlar bo'lgan, bu lavozimlarni ko'pincha harbiy hizmatga layoqatsiz bo'lsada, xonlarga ma'qul kishilar qo'yilgan.

II-BOB. XIVA XONLIGINING HARBIY BOSHQARUV TIZIMI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (BUXORO AMIRLIGI VA QO'QON XONLIGI BILAN QIYOSLASH)

1. Xiva xonligida boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Xiva xonlari xukmronligining ilk kunlaridanoq saltanat yurgizish intizomiga rioya qilgan holda va mamlakat ishlarining Nizomi maslahati uchun, davlat arboblarning saralari va zamonasining ko'zga ko'ringan qonunshunoslarini to'plab mashvarat o'tkazishgan.

XIX asrning 1819-1820 yillarida davomida Xivada bo'lgan N.Muravyev yozishicha, Muhammad Rahimxon davrida Oliy kengash vujudga kelgan. Bu kengashga turli da'vo va jinoiy ishlarni ko'rish va qaror chiqarish huquqi berilgan va bunda xonning ixtiyori cheklangan bo'lgan¹. Ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo'lgan urug' oqsoqollari kengashi o'rniga, Muxammad Rahimxon davrida Oliy kengash vujudga keldi. Ushbu Oliy kengash Olloqulixon davrida ham faoliyat ko'rsatgan va uning tarkibiga mehtar, qushbegi, naqib, shayhulislom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, shig'ovul, dasturxonchi, arbob, miroxur, to'shakchi, oqo-og'o va hakazo mansab va unvon egalari kirganlar. Xon biror bir qaror chiqarishdan oldin, doim kengash chaqirgan. Kengashga mehtar, qushbegi, naqib, shayhulislom, devonbegi kabi nufuzli kishilar qatnashishgan. Bu tor doiradagi yashirin kengashning qarori xonning qaroridek ko'rsatilsada, lekin amalda bu kengash yuqori qonun chiqaruvchi, ma'muriy va sud hokimiyati edi. Kengash ana shu kishilar ishtirokida xonlikning ichki ishlariga oid masalalarda qaror qabul qilardi² va xonlikning boshqa davlatlar bilan bo'lgan tashqi munosabatlariga doir masalalarni hal etardi. Buni o'sha davrda Xivaga kelgan ajnabiy elchilarning yozib qoldirgan ko'pgina xotiralar tasdiqlaydi. Bu elchilarning hammasini xon, qoida bo'yicha, yuqorida aytilgan shaxslar ishtirokida rasmiy ravishda qabul qilardi. Oliy kengash rasmiy davlat ishlari bilan ham

¹ Муравев Н.Н. Путишествие в Туркмению и Хиву. Част.2 М., 1822, С.61.

² ЎзФА Шарқшунослик институти, фонд 33, п.2, Б.80.

shug'ullanardi. Bu kengash har xaftada juma kuni ko'rinish xonada to'plangan. Muzokaralar boshlanishi oldidan mulozimlar hozir bo'lganlarga osh tortgan va mehmondorchilikdan keyin maslahat boshlangan.

Yuqorida bayon etilgan "Oliy kengash Xiva xonligida yagona grajdanlik va jinoiy ishlar sudi hisoblanadi"¹ – deb yozadi N.Muravyev bu kengashning faoliyati to'g'risida. Xonning maslahatchilari bo'lgan oqsoqollar saroyda har kuni to'planishgan. Oqsoqollar ma'lum bir fikrga kelganlaridan keyingina ularning qarorini mehtar xonga bildirgan. Kengash majlisi qarornoma tuzmagan, mustaqil qarorlar chiqarmagan. Kengash davlatning turli tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qilgach, muhokama qilingan masalalar va kengashning fikri mehtar orqali xonga bildirilgan. Xon poytaxtga kelgan mahalda, hozir bo'lganlar bomdod namozidan chiqqan xonni qutlamoq uchun har kuni ertalabdan saroyga yig'ilishlari lozim edi.

Mehtar va qushbegi kun bo'yi mahkamalarida hozir bo'lib, o'z taxti idoralari ostidagi mahkamalardan kelgan ishlarni qabul qiladilar, xon tomonidan beriladigan, barcha farmoyishlar darhol shu joydan tarqatiladi². Xon hokimiyati o'z faoliyatida, bir tomondan ko'p sonli o'rta yer egalari va ularning vakili bo'lgan oqsoqollarning Oliy kengashiga suyanardi. Xon saroyida o'tkaziladigan marosimlar o'zining qat'iyiligi va mustahkamligi bilan xonlikning hamma joyida tartib hukm surishi va hamda a'yonlarning mansab va darajalariga qarab hurmat qilishini yana bir karra ko'rsatadi. O'sha zamonda saroyda mavjud bo'lgan marosimlar diqqatga sazovordir, chunki ular Xiva xonligida idora usulini ochiq oydin ko'rsatib berardi.

Elchilar qabul qilish marosimida yoki boshqa muhim marakada mansabdor ayonlar va unvon egalari ravoqda quyidagi tartibda joylashadilar: uzun ravoqning kun yurish tomonidagi devor o'rtasida xon o'tiradi. Xonning chap tomonida esa ayon va sarkardalar: naqib, amirulumaro, bosh inoq, ikki mutavvali, xonning sayidlaridan bo'lgan urug'lari, shayhulislom, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt biy, to'rt mirob, uch darg'a, uch arbob, ikki oqo va uch savdogar boy o'tiradi.

¹ ЎзФА Шарқшунослик институти, фонд 33, п.2, Б.80.

² Шу жойда.

Savdogarlardan ikkitasi Yangi Urganchdan, bittasi Xonqadan. Xonning o'ng tomonida, devor bo'yida tartib bilan ulamolar: qozi kalon, qozi askar, a'lam, mufti, so'ngra ilgariroq yorliq olganlar va nihoyat mudarrislar o'tirardi.

Hozir bo'lganlar birinchisidan beshinchisigacha, beshinchidan yettinchisigacha yoki yettinchisidan o'n uchinchisigacha tantanali marosimlar vaqtida amaliga qarab tartib bilan o'tirishga haqlidir, bular "o'rinishli" deb ataladi. Boshqalar biror farmoyish kutib, xon ro'parasida uzoqroqda ta'zim bilan oyoqqa bosib turadi. Xonning ro'parasida turuvchi va o'tiradigan tayinlik o'rni bo'lmagan shaxslarni umuman "o'rindor oqsoqollar" deb aytiladi¹. Mansabdor, ulamo, shuningdek, sarkarda hamda turli ayonlarni xon atrofida ma'lum tartib bilan o'tirg'izish juda qadimdan davom etib kelgan.

V.V.Bartold o'zining "XVII asrda o'zbek xonlari marosimlari" degan kitobida shunday bayon qiladi: "Marosimlar vaqtida saroy amaldorlari har qaysisi o'zining unvon va martabasiga qarab ma'lum joyni egallab o'tirardi. Taxtning so'l tomonidagi o'rin faxriyroq hisoblanardi. "Chunki o'zbek xalqida yurak chap tomonda, degan gap bor", shu sababdan so'l tomonga o'ng tomondan ko'proq ahamiyat berilgan. So'l tomonda birinchi bo'lib naqib o'tirar, so'ngra esa tartib bilan urug' vakillari, urug' otaliqlar va hakazolar o'tirishardi. O'ng tomonda esa birinchi faxriy o'rinda shayxulislom, so'ngra qozi kalon, qozi askar va hakazolar o'tirishardi²". Xiva xonligining ma'muriy apparati-moliya-soliq boshqarmasi mukammal bir boshqarma bo'lib, birinchi o'rinda turishi bu davlat uchun xarakterli edi. Shu sababdan bu boshqarma tepasida turuvchi amaldorlar ham davlatda birinchi o'rinda turar edilar. Moliya va soliq boshqarmasiga uch kishi: mehtar, qushbegi va devonbegi boshchilik qilar edi.

Tarixiy xujjatlarning guvohlik berishicha, xonlikda mehtar xondan keyin ikkinchi shaxs bo'lgan. Masalan, N.Muravyev mehtarning vazifasini shunday tushuntiradi: "Xon xazinasini mehtarning ixtiyorida bo'lib, daromadni hisobga olib boradi, ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularni boqish ham uning ixtiyorida. Xon

¹ ЎзФА Шарқшунослик институти, фонд 33, п.2, Б.7.

² Бартолд В.В. Церемония узбекских ханов в XVII веке. -СПб, 1909, С.301-303.

Xivadan safar qilgan mahalida xonlikni boshqarishni unga topshirib ketadi”¹. Ma’lum bo’lishicha, Xiva xonligining Olloqulixon davrida Muxammad Yusuf (1803-1839) va Muxammad Yoqub (1839-1856) lar mehtarlik lavozimida faoliyat ko’rsatganlar.

Ingliz elchisi Abbotning ma’lumotiga ko’ra, mehtarning mustaqil ravishda muzokara olib borish huquqi ham bo’lgan². Muxammad Yusuf mehtar Olloqulixonni deyarlik barcha harbiy yurishlarida kuzatib borgan. U yoshi o’tib qolganligiga qaramay yov bilan bilan olishuvlarda, og’ir va chigal paytlarda navkarlarga o’zi shaxsan o’rnak bo’la olgan. Mehtar xon xazinasining daromadini hisobga olib borish va pul solig’ini to’plashdan tashqari, xonga qarashli yerlardan va podsholik yerlaridan don solig’i ham to’plangan. Mehtar xarajatlarni mustaqil ravishda yozib bormagan, u qushbegi bilan birgalikda daftar yuritgan va xazina omboriga o’zi kiritgan pullarnigina qayd etgan. Qushbegi va mehtar to’plagan soliqlar maxsus daftarlarda qayd etilgan. Shuningdek mehtar xonlikning janubiy qismiga boshliq bo’lib, chet ellar bilan bo’ladigan munosabatlarga mutasaddi edi³. Mehtardan keyin qushbegi turardi. U xonlikning shimoliy qismiga mutasaddi edi⁴. Ogahiy “Riyoziy ud-davla” asarida mehtar va qushbegi davlat ishlarini yurgizishda doimo bir birlarini to’ldirib turuvchi, nihoyatda odil va oqil, yuqori tabaqalar va keng xalq orasida katta obro’ va e’tiborga ega kimsalar bo’lganligini ta’kidlagan.

Qushbegi ham huddi mehtar kabi yurt ravnaqi yo’lida qator bunyodkorlik ishlarini amalga oshirar edi. Buni “Riyoziy ud-davla” ning quyidagi jumllalaridan bilsak bo’ladi: “Hamul yil, “Madrasii oliy” kim Xevaqa shaxrida Karvon saroy bilan Pahlavon darvozaning oralig’ida voqe’durur... Hazratning farmoni bilan bino qurilishining ish yurituvchisi Muxammad Rizo qushbegi erdi. Ul vafot etgandan so’ng Otamurod qushbegi yangi farmon bilan ish yurituvchi etib tayinlanib, qurilishni oxiriga yetkazdi”⁵. Yoki huddi shu asarda ma’lum bo’ladiki, Dishan qal’a

¹ Муравев Н.Н. Путешствие в Туркмению и Хиву. Част. 2 М., 1822, С.60.

² Аббот. Асарлар. 1-том. В.81.

³ Залесов Н. Посолство в Хиву капитана Никифорова в 1841г., 1865, С.65.

⁴ Ўша жойда.

⁵ Огахий. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. Инв N5364/II. Б.354.

devorini bunyod etishda xonning farmoniga asosan Muxammad Yoqub mehtar va Otamurod qushbegi bosh-qosh bo'lganlar. Qushbegi davlat arbobi, bunyodkor quruvchi bo'lishligi bilan birga lozim paytlarda harbiy boshliq vazifasini ham bajargan. Bu haqida ham Ogahiy “Riyoziy ud-davla” da quyidagicha ma'lumotni keltirib o'tgan: “...o'rus harbiylarining Cho'chqako'l mavzesiga kelib, qo'rg'on solib, xusumat asbobin qurg'oni va....Otamurod qushbегining ba'zi sarkardalar bilan ul qal'aga borib, Rusiya ahlig'a katta talofat yetkazib qaytdi”¹.

Manbalardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, uchinchi ma'muriy shaxs – devonbегining ahamiyati mehtar va qushbegi singari XIX asrning boshlarida soliq va ma'muriy islohatlar munosabati bilan ancha ortgan. N.Muravyev yozadiki, “Shu vaqtgacha saroydagi bosh amaldorlar huzurida devon va devonbегilar bo'lgan”.² Har bir devon singari daromad ishlarini boshqaruvchi bosh devonbегi endi vazirlik vazifasini bajaradi. Ma'lum bo'lishicha, zakot va bozorlardan tushgan soliqlarni devonbегi Matmurod (o'z mahkamasi orqali) xon saroyi ehtiyoji va, shuningdek, harbiy xarajatlar uchun sarflar edi. Xiva xonligining ma'muriy tuzilishini o'rgangan A.Kun yozadiki, “Mamlakatda asosiy boj-xiroj yig'uvchilar devonbегilar, qushbegi va mehtar hisoblanadi. Ularning har qaysi birida o'z mahkamasi va ularda uch-to'rttadan devonlari, ular orasidan biri boshliq bo'ladi. Devonlar kirim va chiqim daftarlarini yurgizadilar”³. Xon huzurida ham maxsus devonbегi bo'lib, u xonning rasmiy kotibi hisoblangan.

Xiva xonligidagi ma'muriy tuzilishining xarakterli bir tomoni shundan iborat ediki, moliya-soliq boshqarmasi hashar ishlarini, chunonchi ariq qazish ishlarini ham boshqarar edi. Yer solig'i mahkamasi xalqdan tabiiy soliqlarni yig'ish ishiga ham mutasaddi edi. Mehtar, qushbegi va devonbегi davlat hamda xonga qarashli yerlardan soliqlarni to'plash va daromadlar hisobini olib borishdan tashqari, xazina mablag'larining sarflanishi ustidan ham nazorat qilar edilar. Shu shaxslar ariq qazish va tozalash, to'g'onlarni mustahkamlash, qal'alar bunyod etish va hakazo ishlarni dehqonlarga ishlatish ustidan ham mutasaddilik qilardilar.

¹ Огахий. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. Инв N5364/II. Б.354.

² Муравев Н.Н. Путишествие в Туркмению и Хиву. Част.2 М., 1822, С.63.

³ Туркестанский ведомости. 1873, С.33.

Mehtar bosh vazir sifatida davlatning tashqi munosabatlariga ham rahbarlik qilgan. Bu sohada shig'ovul uning bevosita yordamchisi edi. Shig'ovul – ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularning ta'minoti bilan shug'ullangan. “Riyoz ud-davla” dan ma'lum bo'lishicha, Olloqulixon davrida faoliyat ko'rsatgan Ibrohim shig'ovul “o'zbekiya sipohdorlaridan ixlosi panoh, shijoat dastgoh Qorli yuzboshining iltimosiga binoan sarkarda sifatida bir necha yuzboshi, dorug'a va otaliqlar ishtirokida Qorri qal'asiga ko'mak uchun yuborilgan¹” va u nomdor lashkar boshliqlardan bo'lgan.

¹ Огаҳий. Риёз уд-давла. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. Инв N5364/II. Б.330

2. Olloqulixon hukmronligi davrida Xiva xonligidagi harbiy boshqaruv tizimi

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Xivada ichki ishlar, qamoqxonalar, shuningdek xonni qo'riqlash ishlari yasovulboshi qo'lida bo'lgan. Maxfiy farmonlar ham uning qo'lida turar edi. U askariy qismlarga qo'mondonlik qilar edi. Yasovulboshilik yuqori sarkarda mansabi hisoblanib, xonlikda ular ikki kishi bo'lib, biri yovmut turkmanlariga, ikkinchisi esa chovdurlarga qo'mondonlik qilardi.

Yasovulboshining vazifasi xonning farmoniga muvofiq askarni o'z vaqtida urushga boshlab borish bo'lgan. Tinchlik vaqtlarida yasovulboshilar navbat bilan xon turli iltimoslarni qabul qilgan marosimlarda hozir bo'lganlar. Ma'lum bo'lishicha, xon huzuridagi rasmiy qabul marosimlarida yasovulboshilarning doimiy o'rinlari bo'lmas edi, lekin ular xon huzurida bo'ladigin tor kengashda mehtar, qushbegi va devonbegi bilan bir qatorda qatnashar edilar. Har bir yasovulboshining bir necha yordamchisi bo'lib, ular yasovullar deb atalgan. Arznomani tekshirish uchun xondan farmon olgach, yasovulboshi o'z yordamchilaridan birini shikoyatchiga qo'shib, hodisa yuz bergan joyga jo'natardi. "Riyoziy ud-davla" asaridan ma'lum bo'lishicha, 1255/1839 yil 10 noyabr kuni Olloqulixon janglar vaqtida vafot etgan Muhammad Niyoz yasovulboshining o'rniga uning o'g'li Rahmatullani yasovulboshi qilib tayinlagan. Rahmatulla yasovulboshi sarkarda bo'lib, uning ixtiyorida turkmanlarning yovmud urug'idan shakllangan ko'p ming kishilik guruh bor edi. U qatnashmagan hech bir harbiy safar bo'lmas edi. Chunonchi, Rahmatulla yasovulboshi 1842-yili Olloqulixonning Chorjo'ga qilgan urush safarida qatnashgan.

"Riyoziy ud-davla" asarida Ogahiy 1825-1842 yillar orasida quyidagilar yasovulboshi bo'lganliklarini bildiradi:

- Abdulla yasovulboshi;
- Muhammad Murodbey valadi Qurbonniyoz;
- Muhammad Niyoz yasovulboshi (go'kloniya toifasining boshlig'i va yovmudiya cherikining sarkardasi, xonning qo'ldoshi, Marv viloyatida

Xiva qo'shinlariga qo'mondon bo'lib qolgan. 1840-yilda Cho'chqako'lga ketishda vafot etgan.);

- Qurbonniyoz yasovulboshi (chovdur cherikiga bosh, 1255/1839 yili Xivada vafot etgan);

- Rahmatullaboy yasovulboshi;

M.Yo'ldoshev "Yasovulboshiga yasovullar, mirshablar, shotirlar, eshik oqolari itoat qilardi"¹, deb yozadi, lekin negadir mirshablarning bevosita rahbarlari dorug'alar to'g'risida ma'lumot bermaydi. Shahar va qal'alarning harbiy holati boshqaruvi dorug'alar qo'lida bo'lgan. Ogahiy "Riyoziy davlat" asarida quyidagi dorug'alar to'g'risida ma'lumot berib o'tadi:

- Abdurahmon dorug'a (qipchoq, vabodan o'lgan, uning o'rniga inisi tayinlangan);

- Bobonazar dorug'a (mang'it, Olloqulixonning mulozimlaridan edi Muhammad Yusuf mehtarga ko'mak berish uchun Xurosonga yuborilgan);

- Ko'xkan dorug'a (mang'it, vabodan o'lgan);

- Boynazarbek (akasi Ko'xkan o'rniga dorug'a bo'lgan);

- Niyoz rais dorug'a (o'zbakiya sipohlaridan);

- Nayman Murod dorug'a (Xivadan Hirotga elchi bo'lib Hirot Shahzodasini kuzatib borgan);

- Vays Niyoz dorug'a (Olloqulixonning mulozimlaridan edi. Muhammad Yusuf mehtarga ko'mak berish uchun Xurosonga yuborilgan).

So'nggi jumladan ma'lum bo'ladiki, dorug'alarning raisi bo'lgan va yasovulboshilar u orqali boshqa dorug'alarga va mirshablarga murojaat qilgan bo'lsa kerak.

Xonlikda ichki tartibni saqlab turish mirshablar zimmasida edi. Ular shahar bosh darvozalarida turib kelib ketuvchilarni kuzatib turganlar. Bundan tashqari, safarbarlik holatlarida askarlar bilan harbiy yurishlarda qatnashadigan mirshablar ham bo'lgan. Ma'lum bo'lishicha, xonlikda hamma shahar va dahalarning o'z

¹ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер егалиги ва давлат тузилиши. -Т.: Ўздаврнашр, 1959, 280-б.

mirshablari bo'lgan. Xonlikning qurolli kuchlari markazlashgan davlat ma'muriyatining tarkibiy qismiga kirgan. Mamlakat fuqorolari bu qo'shinni o'zlari uchun eng mustahkam tayanch deb bilganlar. Xiva qo'shinining shu qismi boshqa qismlarga qaraganda ancha imtiyozli bo'lgan. Xon navkarlariga Xiva shahri atrofidan, ya'ni ularning qismlari turadigan joylarning atrofidan yer va suv berilgan. Ularga doim maosh to'lab turilgan. Tinchlik vaqtida xon qo'shini shaharni muhofaza qilishdan tashqari boshqa xil vazifalarni ham bajarardi.

Xiva qo'shini asosan, navkarlardan tuzilardi. Navkarlarga davlat tomonidan qariyb 20 tanobdan yer in'om qilingan. Navkarlar soliqlar va majburiyatlardan ozod qilinganliklari uchun o'z burch va vazifalariga sidqidildan yondoshar edilar. Xizmat ko'rsatgan harbiylar yoki amaldorlar pul, yer-suv, mol yoki qimmatbaho buyumlar bilan mukofotlanar edilar.

M.Yo'ldoshev "Xiva xonligida harbiy safarlar vaqtida davlat tomonidan tibbiy yordam ko'rsatilmas edi. Yarador bo'lgan jangchilar tabibga murojaat qilardilar. Askarlar yarador bo'lib qolgan taqdirda davolatish uchun ularga zarur miqdorda pul berilardi.¹" – deb yozadi. Ogahiy "Riyoz ud-davla" asarida quyidagicha ma'lumot beradi. "Bekmonbey valadi Do'simbey to'fang o'qidan zaxmdor bo'lib chiqdi, xazinadan unga yuz tillo va bir xal'ati kimxob in'om bo'lib, hoqon dor-ush-shifosida davolanib chiqdi²". Yoki shu asarning o'zida Mirzo Husayn tabibboshi to'g'risida so'z boradi. Demak, xonlikda tabibboshi bo'lgan bo'lsa, uning qo'l ostida tabiblar bo'lgan va o'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, bu tabiblar Shifoxonalarda faoliyat ko'rsatganlar. Xonlikning chegara qo'shini navkarlar qo'shini singari tashkil etilardi. Chegara tumanlarida navkarlarga yer-suv berilardi.

XIX-asr boshlarida viloyatlarning har birida 1000 tagacha navkar bo'lib, harbiy yurish paytida nomuntazam qo'shin to'plangan. Xonlikda oliy harbiy xokimiyat xon qo'lida edi. Xonlikdagi yirik amaldorlarning aksariyati harbiy kishilar edi va ularning har biri sarkarda etib tayinlanishi mumkin edi.

¹ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер егалиги ва давлат тузилиши. -Т.: Ўздаврнашр, 1959, 280-б.

² Огахий. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. Инв N5364/II. Б.330.

M.Yo'ldoshev "Yasovullardan keyin mingboshilar keladi" – deb xabar berib o'tadi va ularni "mingboshi oqo" deb ta'riflaydi. Lekin negadir Ogahiyning "Riyoz ud-davla" asarida mingboshilar to'g'risida hech qanday ma'lumot uchratmaymiz, ammo oqo mansabiga erishgan:

- Muhammad Yoqub oqo (chig'atoy halqining izzatpirisi¹);
- Sattorquli oqo (Dashti Qipchoqda elchi bo'lgan);
- Shukrullo oqo (Muhammad Yusuf mehtar tomonidan elchi bo'lib Hirotga mingta qo'y va ming botmon g'alla olib borgan, Xorazmdan Buxoroga elchi bo'lgan);

- Hasanali oqo (darigizlik);

- Oqo Niyozbek (soriqlarni to'g'ri yo'lga boshlash maqsadida yuborilgan) lar to'g'risida ma'lumot berib o'tadi². Ogahiy shuningdek, shaxmolchilar va to'pchiboshilar to'g'risida ham ma'lumot berib o'tadi. Jumladan, Muhammad Yoqubho'ja to'pchiboshi bo'lganligini bilamiz.

Yuzboshi – yuzta harbiy otliqqa boshliq bo'lib, ular orasida o'ta mahshur va nom qozonganlari ham bo'lganlar. Masalan, Qorli yuzboshi xonning hos hizmatlarini bajarganligi ma'lumdir. Shulardan biri, 1840-yilda rus asirlarini vatanlariga ketishlariga ruhsat etilganda Olloqulixonning topshirig'iga binoan, ushbu yuzboshi "tokim Tengizga (Kaspiy) borguncha o'ruslar ahvolidin xabardor bo'lib, sog'-salomat kemalarga o'tkazib" xonning o'ziga bu haqda hisobot bergan. "Riyoz ud-davla" da Olloqulixon davrida faoliyat ko'rsatgan 37 ta yuzboshi to'g'risida ma'lumot beriladi. Ularning ro'yhati quyidagicha:

- Abdurahmon yuzboshi (sotur kadxudolaridan);
- Abdurahmon (shaxmolchi sarkardalardan);
- Avaz yuzboshi (qullar sarkardasi);
- Ajamberdi yuzboshi (to'pxona mulozimlarining sardori);
- Aydak yuzboshi;
- Ahmadbek yuzboshi (to'pxona mulozimlari sarkori);

¹ Izzatpirisi-izzatli kishisi

² Огахий. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. Инв N5364/II. Б.332.

- Begi yuzboshi (yamroliya toifasiga sardor);
- Boyli yuzboshi (chovdur sipohilaridan);
- Vaysboy yuzboshi (to'pxona mulozimlari sarkori);
- Mirsali yuzboshi (chovdur olomonining sardori);
- Mulla Murod Ali yuzboshi;
- Muhammad Amin yuzboshi;
- Muhammad Nazar yuzboshi;
- Muhammad Niyoz yuzboshi;
- Muhammad Safo yuzboshi;
- Muhammad yuzboshi (o'zbakiya sipohilaridan);
- Muhammadquli yuzboshi (shijoat maydonining yakkatozi);
- Niyoz Muhammadboy yuzboshi (to'pxona mulozimlarining sardori);
- Niyoz Qilich yuzboshi (Buxoroga elchi bo'lib borgan);
- Niyozquli yuzboshi (ali eli urug'laridan);
- Odil yuzboshi (qo'ng'iroq);
- Olloberdi yuzboshi (to'pxona mulozimlarining sardori);
- Pulod yuzboshi;
- Safarboy yuzboshi (chovdur a'zimidan);
- To'lagan yuzboshi (kang'li);
- To'rabek yuzboshi (qiyot);
- To'ra yuzboshi;
- Xolmurod yuzboshi (o'zbakiya sipohilaridan);
- Chorchu yuzboshi (shaxmolchi sarkardalardan);
- Shag'al yuzboshi;
- Shoh Murod yuzboshi;
- Eminnazar yuzboshi;
- Yaxshimurod yuzboshi;
- Qorli yuzboshi (Ko'klon halqining iltimosiga binoan ularga amiri lashkar etib tayinlangan va Qorri qal'asiga hokim etib yuboriladi.);
- Qurbonkeldi yuzboshi (chovdur sipohilaridan);

- Qurbonquli yuzboshi (to'pxonai xumoyun mulozimlarining sardori);
- Qutlug' Murod yuzboshi¹.

Sarkardalik mansabi qo'shin urush safariga chiqqan davrda belgilanardi. Mingboshi va yuzboshilar singari sarkardalar ham bevosita xonning yorlig'i bilan tayinlanar edi. Sarkarda harbiy mahkama kishilari bo'lmasligi ham mumkin edi. Masalan, Munis mirob, Ogahiy mirob va Tog'ay miroblar urush safarlarida qatnashgan va bunda Tog'ay mirob asosiy sarkardalardan bo'lgan.

M.Yo'ldoshev Xiva xonligida qo'shin bosh shtabi bo'lmasada, lekin vazifasi jihatdan shtab boshlig'iga o'xshash mansab bor edi, deb yozadi². Lekin "Riyoz ud-davla" da "Bovard to'pasi otlig' mavze atrofida yashaydigan turkman jamoasidan bir savdogar savdodan foyda ko'riShni ko'zlab, o'rduyi a'loda bir necha surik qo'yu qo'zi keltirgan edi," degan satrlardagi "o'rduyi a'lo" xuddi bosh shtabning o'zi bo'ladi. Yoki "...safarda chog'larida haroratning balandligi, suvning tanqisligidan ko'p aziyat chekdilar. Bundan xabar topgan xon orqada qolgan cherik oldiga suv yuborib, tashnalik ranjidan xalos qilsinlar deya farmon berdi. Muhammad Yusuf mehtar va Bekniyoz devonbegi o'rduyi a'lodan har kun ikki ming tuyaga suv yuklatib zobit soqchilar nomvori va epchil yasovullar sarvari Fulod mahram va Qorli mahramga topshirib, ortda qolgan olomonga suv yetkazib barchasini omon-eson, sog'u salomat davlat lashkargohiga yetkazdilar" – deyilishidan ma'lum bo'ladiki, xonlik armiyasining bosh shtabi bo'lgan va bu "o'rduyi a'lo" harakatdagi qo'shinni boShqarib, holidan har doim xabardor bo'lib turgan.

Naqib-sayyidlar va xo'jalar uchun yuqori faxriy unvon edi. Naqib xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo'lib, safarlarda unga hamroh bo'lardi. Naqib madrasani tugatgan kiShi bo'lib, payg'ambar naslidan bo'liShi kerak edi. Rasmiy qabul marosimlarida naqib xonning so'l tomonida birinchi o'rinda o'tirgan. Xiva xonligi shaharlarining ham devorlar bilan himoyalanganligini XVIII asrda xivada bo'lgan rus tadqiqotchisi I.Muravinning yozishicha, «Xivaliklar xukmronligi

¹ Огахий. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. Инв N5364/II. Б.332.

² Ўйдошев М. Хива хонлигида феодал ер егалиги ва давлат тузилиши. -Т.: Ўздаврнашр. 1959, 286.

ostida sakkizta loydan qurilgan shahar bor; ularning devorlarining balandligi besh va olti sarjin; atrofida kanallar (xandaqlar – G.A.) qazilgan.»¹ Bu ma'lumotni XIX asrning 20-yillariga oid materiallar ham tasdiqlaydi. Ularga ko'ra, Xiva xonligining yirik shaharlari jumlasiga ko'ra, Xiva xonligining yirik shaharlari jumlasiga Xazorasp, Xonqa, Gurlan, Xo'jaylilar ham kirgan bo'lib, o'sha yerdagi boshqa shaharlar kabi, ularning hammasi loy devor va xandaqlar bilan o'ralgan edi².

¹ Гладишев и Муравин...Приложения к показаниям Муравина...Журнал описаний киргиз-кайсакам. Каракалпакам, аралцам и хивинцам...Описание месйаца нойабрйа 1740 г. ... С.74.

² О нынешнем состайании некоторых областей и городов в средней Азии//Азиацкий вестник. ... СПб, 1826, ...С.26.

II.3 Xiva xonligiga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishlar vaqtida xonlikdagi harbiy holat

Bu davrda kelib Rus davlatini hukmron doiralari orasida o'zbek xonliklarini bosib olish harakatlari kuchaygan edi. Chunonchi, 1835 yilda Orenburg general-gubernatori V.A.Perovskiy imperator Nikolay I ga maxsus xat bilan murojaat qilib, unda Xiva xonligiga qarshi nafrat uyg'otishga qattiq urinadi. U Xiva xonlari uzoq vaqtlardan buyon dushmanchilik qilib kelayotganligini ko'paytirib ta'rifladi. Shuningdek, Xiva xonligi aholisini madaniyatsizlikda, qoloqlikda va hatto vahshiylikda aybladi. Hatto, u Bekovich-Cherkasskiyni qiynab o'ldirilganligini ham eslatib qo'ydi. Shu ravishda general Perovskiy qanday bo'lmasin imperatoridan Xiva xonligiga qarshi harbiy yurishga ruhsat olish uchun hech narsadan toymadi. U o'z xatini quyidagi tarzda tugallagan: "Fransiya Jazoirni urushib olishi uchun millionlab so'mlarni sarfladi, lekin bu xarajatlarni doimiy ravishda bir necha marta ko'paytirib qoplab turadigan mamlakatga ega bo'ldi. Rossiyaning Xiva xonligini bosib olishi esa, o'sha xarajatlarning o'ndan biriga ham arzimaydi. Ammo, urushib olinsa, O'rta Osiyo bizni madaniyatimiz, savdo va sanoatimiz, boshqaruv tizimimiz kirishida taraqqiyotga erishib asrlar mobaynida davom etib kelayotgan zulm va azob-uqubatdan xalos bo'ladi"¹. Binobarin rus harbiy sarkardasi Xiva xonligini egallash katta boylik berishiga e'tiborini qaratarkan, Rossiya go'yo taraqqiyparvarlik vazifasini bajarishini pisanda qiladi. Bu siyosat uchun yozilgan gap edi, albatta.

1837 yilda rus imperatori Nikolay I (1825-1855) Xiva xonligini bosib olish haqida V.A.Perovskiyga farmon berdi. Shunga muvofiq bu general rus imperatoriga 4000 kishilik askar va 12 to'p ajratilishini tavsiya etdi. Yurishga sarflanadigan mablag'ni hajmi 1.689 ming qog'oz pul va 575 ming kumush so'm miqdorida bo'lishi ko'rsatildi. 1839 yilda 4250 ta askar, 18 ta to'p, 2090 kishidan iborat qo'shin jamlandi. So'ngra, o'sha yilning 14 noyabrida Xivaga qarshi yo'lga chiqildi. General Perovskiy boshchiligidagi qo'shin 19 dekabrda Emba qal'asiga

¹ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 152-б.

oʻrnashdi. Shu orada qattiq sovuq va boʻronni turishi rus askarlarini ogʻir ahvolga solib qoʻydi. Hatto ularni orasida oʻlganlar ham koʻzga tashlandi. Tuya va otlarni boqish qiyinlashib, birin-ketin oʻla boshladilar. Rus qoʻshinlarini kelayotganligidan xabar topgan Xiva xoni Olloqulixon ularga qarshi askarlarini yubordi. Bular yoʻlda Buxoroga elchi sifatida kelayotgan ruslarni, xususan kapitan Kovalevskiy va shtab kapitani Grigrasni asir oldilar. Ammo, asirlar qochib qutilshga erishdilar. Bu vaqtlarda general Perovskiyning qoʻshinining bir guruhi oldinroq kelib “Choʻchqa koʻl” degan joyga oʻrnashib olgan edilar. Bu voqea mahalliy manbada shunday taʼriflangan: “- ruslar “Choʻchqa koʻl” ga kelib qalʼa qurishidan maqsad Xiva xonligini bosib olishga tayyorgarlik koʻrish edi. Olloqulixon bundan xabar topib Otamurod qushbegini 18 sardor va 8 ming kishi bilan oʻsha joyga joʻnatdi. Xiva qoʻshini Xivadan chiqib Urganch, Qizilgunband degan joylar orqali qozoq yoʻllariga oʻtdilar. Soʻngra ular “Yomon ming yilqi” degan joyga kelishganda sardorlardan biri – Muhammad yasovulboshi vafot etdi. Uning murdasi Xivaga yuborildi. Shundan keyin Xiva qoʻshinlari bir necha manzil yoʻl yurib, “Choʻchqa koʻl”ga kelishdi. Soʻngra dushmanga hujum qilindi. Asirlikka olingan bir rus kishisi koʻp sonli rus qoʻshinlarini erta-indin bu yerga yetib kelishini, qalʼada yarogʻ-aslaha koʻpligi haqida maʼlumot bergan. Shunga qaramay Vatan himoyachilari ruslarga qarshi hujum boshladilar. Ammo, ob-havoning aynib qattiq sovuq va boʻronni tutishi hamda qalin qor yogʻishi jangni davom ettirishga yoʻl bermadi. Jangda Vatan himoyachilaridan 4 kishi halok boʻlib, 5 kishi jarohatlandi. Ob-havoning yomonligi urushni davom ettirishga yoʻl bermay, askarlar Xivaga qaytdilar”¹.

Bu voqeadan soʻng “Choʻchqa koʻl”ga yetib kelgan general Perovskiy va qoʻshini ham qattiq sovuq va boʻron ostida qolib odamlar birin-ketin oʻla boshladilar. Ot va tuyalarni boqish ham juda qiyinlashdi. Qoʻshin orasida turli kasalliklar koʻpayib bordi. Ob-havoning juda noqulayligi va ogʻir Sharoit yoʻlni davom ettirishga yoʻl qoʻymadi. Shuning uchun general Perovskiy 1840 yil fevral oyini boshlarida qoʻshinni Orenburgga qaytarishga majbur boʻldi. Bu

¹ Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1994, 302-б.

muvaffaqiyatsizlik katta talofat va yo'qotishga olib keldi. Chunonchi, 1054 kishi halok bo'ldi, 1000 tuya va 8000 ot yo'qotildi. Ko'p ruslar yo'llarda adashib yoki toliqishdan yura olmay xivaliklar tomonidan asirlikka olindi.

1839 yilgi harbiy yurishda davlat xazinasidan 1700 ming so'm behuda ketdi. Bundan tashqari unda 23 ming otlar qo'shilgan 7500 aravalar bor edi. Ularning tannarxi 2 mln so'mni tashkil etgan. Shuningdek, tuyalarni sotib olinishiga 1 mln so'm sarflangan¹. Bu yerda ko'p askarlar va boshqa kishilarning halok bo'lganligini hamda oziq-ovqatlarni, kiyim-kechaklarni sarflanganligini hisobga olsak ko'rilgan ziyon nihoyatda katta bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham rus imperatori Nikolay I general Perovskiyning qo'shinni ortga qaytarilishi haqida raportiga: - "Afsus, juda afsus, lekin na chora xudo-taoloning xohishiga bo'ysunmaslikning hech iloji yo'q", - deb imzo chekkan².

Xiva tarixchisi Muhammad Yusuf Bayoniyning ko'rsatishicha, o'sha 1840 yilda Hindistondan Haybat Sohib³ o'tlig' degan kimsa Angliya hukumati nomidan elchi sifatida kelib quyidagi mazmundagi nomani xonga bergan: "Ko'p zamonlardan beri ruslar siz tarafga harakat etib viloyatingizni egallamoq niyatidadir. Ularning maqsadi Movaraunnahrni, Xorazmni, Xurosonni egallab Seiston usti bilan Hindistonga o'tishdir. Rusiya bir ulug' hukumat va podshohlikdirkim uni lashkari sanoqsiz va yarog'-aslahasi juda ko'pdir. Uning ozgina lashkariga ham qarshi turarlik kuchingiz yo'qdir. Gap shuki, yana 50 yildan keyin (ruslar) sizlarning yerlaringizga ega bo'lur. Agar viloyatingizni mudom qo'lingizda turishini va hech kimni unga tajovuz etmasligini xohlasangiz uni bizga bering. Xorazmni Angliya qo'li ostida degan so'z sizlarni xavf-xatardan xoli etadi. Bizning maqsadimiz nafsoniyatdan bo'lmay, do'stlikdadir, hamda ruslarni Hindistongacha yo'lini to'sishdir. Bizdan sizga foyda yetar aslo zarar yetmasdir. Xohish-istagingizni yozdirib shartnoma tuzinglar, bizlar esa qabul qilamiz".

Bunga javoban xon degan: hozir ruslar ustimizga bostirib kelganicha yo'q. 50 yilgacha kim boru, kim yo'q, biz 50 yildan keladigan ishni deb yurtimizni

¹ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1994, 130-б.

² Ўша жойда.

³ Haybat Sohob-Jeyms Abbat

qo'limizdan hech kimga bermaymiz. Bizdan keyingi avlodlar nimani xohlasalar shuni qilsinlar¹. Bu javob elchini qoniqtirmay shunday degan: "Taklifimni qabul qilganlaringizda ko'p foyda berardi, vaqti kelib pushaymon bo'lishni foydasi yo'qdir". Shundan keyin elchi o'z maqsadiga erisha olmay o'z yurtiga qaytgan².

Mening fikrimcha Olloqulixon uzoqni ko'ra olmaydigan davlat arbobi hisoblangan. U favquloddagi voqealarda bir-birlariga harbiy va ma'naviy yordam berish hususida Angliya vakili bilan shartnoma tuzganda yaxshi bo'lishi turgan gap edi. Bundan rus davlatiga biroz bo'lsa-da hayiqishi mumkin edi. Olloqulixon esa, buni ahamiyatini tushunishga ojizlik qildi. Bu vaqtda Angliyaning Hirotdagi elchixonasi a'zolaridan biri kapitan Shekspir ham kelib Hirot xokimi nomidan Olloqulixonga xat olib kelgan. Bunda Rossiya bilan aloqani yaxshilash va rus asirlarini ozod etish so'ralgan. Aftidan, Xirot xokimi Rus davlatini bostirib kirishini Afg'oniston uchun havf to'g'irishini o'ylagan bo'lsa kerak. Shuningdek, angliyalik kapitan Abbatni kelganligi ta'kidlanadi³.

Rossiya imperiyasining XIX asr 60-yillarida O'rta Osiyoga boshlagan harbiy yurishlari davomida Xiva xonligiga qarshi hujumlarga alohida e'tibor berilgan va tayyorgarlik ko'rilgan. Bu eng avvalo XVIII-XIX asrlarda Rossiya imperiyasi xonlikka qarshi yuborgan harbiy ekspeditsiyalarning mag'lubiyati bilan izohlanar edi. Zero xonlikning jo'g'rofiy joylashuvi – uning atrofini qumlik, cho'llardan iboratligi bosqinchilar g'alabasini kafolatlay olmas edi. Ehtimol shu sababli, Rossiya imperiyasi Xiva xonligiga qarshi yurishlarni oxirgi bosqichga qoldirdi. Bunga qadar Qo'qon xonligi va buxoro amirligiga qarshi yurishlardagi g'alabalar Rossiyaning Xiva xonligiga yurishiga katta imkoniyat yaratdi. 1839 yil 16 fevralda Xivaga qarshi harbiy ekspeditsiya jo'natish rejasi tasdiqlandi. Qo'shin boshlig'i, 1833 yildan Orenburg harbiy gubernatori lavozimida turgan general-ad'yutant V.A.Perovski mo'ljallangan ishni 4000 askar, 12 ta to'p va 12800 tuya yordamida

¹ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1994, 202-б.

² Ўша жойда.

³ Шу асар, 204-б.

amalgga oshirish mumkin deb o'ylardi. 1839 yil oktyabriga kelib Orenburgda 4250 askar, 18 ta to'p, 2090 qozoq tuyakashlari to'plandi¹.

1839 yil 14 noyabrda Orenburgdan chiqqan qo'shinda 4 nafar general, 14 shtab ofitserlari, 5325 askar, 12450 tuya, 2 ta to'p, o'q-dori va oziq-ovqatlar bor edi. Ular oldida cho'l va qirlar orqali o'tadigan 1300 chaqirim dasht yo'li turardi. 19 dekabrda ruslar odamlarini yo'qotmasdan, ammo 3000 ga yaqin tuyalaridan ayrilib, Emba istehkomiga yetib keldilar. Ikki haftadan keyin, rus qo'shinlari yana yo'lga tushdilar. Qor bo'roni shu qadar kuchli ediki, kuniga zo'rg'a 5 chaqirim yo'l bosishga erishilardi. Cho'chqako'l yaqiniga kelgan qo'shindagi askarlarning ko'plari qo'l-oyoqlarini sovuqqa oldirgan, ayrimlarining ko'zlari og'rir, isitmasi ko'tarilib, tsinga kasalligidan tishlari tusha boshlagandi. Izg'irin sovuq 29 darajaga yetib, ekspeditsiyaga ko'maklashayotgan qozoqlar 5000 dan ortiq tuyalari halok bo'lganidan juda ham xavotir oldilar. Qo'mondon V.A.Perovskiy 1840 yil 1 fevralda 1054 askar, 5 mingdan ortiq ot va tuyalaridan ajralgan harbiy ekspeditsiyaga orqaga qaytish haqida buyruq berdi. Halokat yoqasida turgan rus askarlari va zobitlari zo'rg'a Orenburg va Orskka qaytib kelishga muvaffaq bo'ldilar. Ruslarning sharmandalarcha mag'lubiyati 20 yildan ortiq vaqt davomida jamoatchilikdan sir tutilgan va ekspeditsiya hujjatlari Sankt Peterburgdagi Bosh shtab arxivida saqlanadi.

Ruslar va xivaliklar o'rtasida harbiy to'qnashuvlar bo'lganligiga shubha yo'q. Chunki 1839 yilda urushda halok bo'lgan Muhammad Niyoz yasovulboshi o'rniga o'g'li Rahmatullo xon tomonidan yasovulboshi qilib tayinlangan. Bundan tashqari Mahambet boshchiligidagi qozoqlar ham ruslarga qarshi 1842 yilgacha kurashganlar. Ruslarning fojeasidan xabardor bo'lgan Olloqulixon nima bo'lsada keyingi munosabatlarni keskinlashtirmaslik choralarini o'ylardi. Shu munosabat bilan xon turli davrlarda Xiva xonligi hududiga bandi qilib keltirilgan va qul sifatida sotilgan rus asirlarini to'plashni buyurdi. Natijada 1840 yil avgustida to'plangan 416 rus asirlari kornet Aitov boshchiligida Orenburgga jo'natildi. Shu

¹ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимга даврдан хозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 168-б.

vaqtda Xiva xonligi haqida josuslik ma'lumotlarini to'plash maqsadida kapitan Nikiforov boshchiligida topografik ekspeditsiya keldi.

Rossiya tashqi ishlar ministrligi tomonidan ekspeditsiya boshlig'iga berilgan berilgan yo'riqnomada "Xiva xonini rus qo'shinlari tomonidan Sirdaryoning quyi qismini ishg'ol qilish masalasida betaraf turishga, Sirdaryoning shimolidagi yerlarni va Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'ini Rossiyaga tobe deb e'tirof etishga ko'ndirish" lozimligi ko'rsatilgandi. Elchi Olloqulixon oldiga rus tovarlariga bo'lgan bojxona to'lovlari biroz kamaytirish, rus asirlaridan bir qismi yurtiga qaytarish kabi talabalarni qo'ydi. Xonlik hududida 1841 yil noyabr oyi o'rtalarigacha bo'lgan rus harbiy topograflari 3 ming chaqirim masofadagi yerlarni xartiga tushirishga ulgurdilar. Olloqulixon yurtiga qaytayotgan Nikiforov ekspeditsiyasi a'zolari bilan birga Vaisboy Nabiev boshchiligidagi 16 kishidan iborat o'z elchilarini ham jo'natdi. Elchilarga rus hukumati boshliqlari bilan muzokaralar olib borish va ikki tomonlama keskin bo'lib qolayotgan siyosiy munosabatlarni yumshatish vazifasi topshirilgandi. 1841 yil 12 dekabrda Orenburgga yetib kelgan xivaliklar o'z safarini davom ettirib, 1842 yilning 10 martida Peterburgga bordilar. Poytaxtdagi muzokaralardan keyin ikki tomonlama munosabatlar biroz yumshadi. Ro'y berayotgan qaltis siyosiy vaziyatni e'tiborga olgan Olloqulixon Xurosonga yurish qilib, 20 ming eronliklarni bandi qilib qaytdi va ularning mehnati bilan Xiva shahrining mudofaa imkoniyatlarini kuchaytirishga harakat qildi. Natijada 1842 yilda Olloqulixon buyrug'i bilan Muhammad Yoqub mehtar va Otamurod Matrizo qushbegi boshchiligida Ichan qal'aning tashqi qismida uzunligi 6250 va balandligi 5-6 metrli yangi mudofaa devori tiklandi. Qurilish 36 kun davom etgan devorni Muhammadrizo Ogahiy "Hisori xush bino" deb baholadi¹.

«Yengilmas Turkiston Jazoiri» deb nom olgan Xiva xonligiga qarshi 1873 yilda Rossiya imperiyasi 3 yo'nalishda juda katta ko'lamdagi qo'shinlarni yo'naltiradi – Turkistondan (aniqrog'i Jizzaxdan) 13 martda Kaufman va

¹ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (қадимга даврдан хозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 174-б.

Golovachev boshchiligida 6000 kishilik qo'shin, Orenburgdan 15 aprelda general Veryovkin boshchiligida 3500 kishilik qo'shin, Kaspiy dengizi tarafdan aprel oyi boshida Mang'ishloq (3000 kishi) va Krasnovodskka (2000 kishi) jo'natiladi. Ma'lumotlarga qaraganda Xiva xonligining 2,5 ming kishidan iborat muntazam armiyasi bo'lsa-da, harbiy texnikasi nihoyatda nochor ahvolda edi. Krasnovodsk otryadi turkmanlar bilan shiddatli janglar tufayli ortga chekinadi. 1873-yil aprelda Mang'ishloqdan yo'lga chiqqan rus qo'shinlari Ustyurt orqali yurib, Qo'ng'irotni egallaydi. Orenburg tarafidan chiqqan qo'shin may oyida Qo'ng'irotda Mang'ishloqdan chiqqan harbiy qism bilan birlashadi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon bir qism qo'shinni K.P.Kaufman kelayotgan tomonga, 6000 nafar askarni Qo'ng'irotga, 2000 nafar askarni Hazoraspga, yana bir qism qo'shinni Xo'jayliga yuboradi¹. Xo'jaylida 600 kishilik qo'shin dushman bilan to'qnashadi va o'zaro janglardan so'ng, shahar dushman tomonidan egallandi. Ayniqsa, Mang'itda general Veryovkin boshchiligidagi imperiya qo'shinlari va mahalliy aholi o'rtasida qattiq jang bo'ladi. Mahalliy aholi, hatto xonadonlarga ham o'rmashib olib, o'q otadilar². Dushmanning qo'li baland kelib, shahardagi yoshu qari va hatto beshikdagi chaqaloqlarni ham ayovsiz qirib tashlaydi³.

Xiva xonligiga qarshi Orol flotiliyasi ham jo'natiladi. Orol dengizidan Amudaryoning yuqori oqimiga qarab yurgan flotiliya matroslari Xiva fortiga xujum qiladilar. Xonlik fuqorolaridan biri hiyla ishlatib, flotiliya kapitaniga o'sha yerdan uzoq bo'lmagan yerda Veryovkin qo'shinlari turganligi haqida sohta xabar beradi. Kapitan tomonidan jo'natilgan matroslar xivaliklar tomonidan tezda yakson etiladi. Imperiya qo'shinlari Shayxariqda 4000-5000 kishidan iborat mahalliy aholi qarshiligiga uchraydi, o'zaro kurashlardan so'ng shahar egallandi. 22 may kuni Veryovkin boshliq qo'shin 10 000 kishidan iborat xivaliklar hujumiga uchraydi, ammo uni yengishga muvaffaq bo'ladi.

¹ Саид Хомид Камёб. Таворих ул-хавонин. -Т.: Академия. 2002, 89-б.

² Хивинская экспедиция 1873 года. Записки очевидца сапера Е.Саранцова. Из инженерного журнала. СПб. 1874, С. 134-135.

³ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. -Т.: Адабиёт ва санъат. 1994, 46-б.

1873 yil 26 mayda Varyovkin boshchiligidagi qo'shin Xiva atrofidagi xonning bog'iga o'rnashadi va shaharni o'qqa tutishga tayyorlanadi. Xon Muhammad Rahimxonning tinchlik sulhi tuzish haqidagi taklifi inobatga olinmadi. Xiva shahriga qo'shni shahar va ovullar aholisi to'planib olgan edi. Shahar aholisi Xivani qurshab olgan imperiya qo'shinlarini to'p va miltiqlardan o'qqa tutadi. Ikki kun davom etgan otishmalardan so'ng 1873 yil 29 mayning erta tongida imperiya qo'shinlari devor va darvozalarini teshib, shaharga bostirib kirishga muvaffaq bo'ladi. Shunda Xiva aholisi shovqin-suron bilan ularga tashlanadilar. Shu orada darvoza ag'darilib, shaharga dushman zambaragi kiritiladi. O'zaro otishuvlardan so'ng urush to'xtatiladi. Shu tariqa puxta reja asosida uyushtirilgan hujumlar natijasida xonlik aholisining qarshiliklariga qaramay, imperiya qo'shinlari mamlakatni bosib oldi va 1873 yil iyunda Rossiya-Xiva sulh shartnomasi imzolandi. Unga muvofiq Xiva xonligi o'z siyosiy mustaqilligidan mahrum bo'ladi, xon tashqi aloqalar olib borish huquqidan mahrum etiladi va imperiyaga qaramligini tan olishga majbur bo'ldi¹.

Xonlikning Rossiya tomonidan bosib olingan yerlari, ya'ni Amudaryoning o'ng qirg'og'i Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tadi. Bu yerlarda Amudaryo bo'limi tashkil etilib, u Turkiston general-gubernatori tarkibiga kiritiladi. Amudaryo bo'limi boshlig'i xonning ichki siyosatini to'liq nazorat ostiga oladi. Hatto, xonlik chegaralari ham Amudaryo bo'limidagi harbiy kuchlar yordamida qo'riqlanadigan bo'ldi. Shu tariqa Xiva xonligi o'z siyosiy mustaqilligini va hududiy yahlitligidan mahrum bo'ldi.

¹ Сборник действующих трактатов, конвенций и соглашений. Том. 1, СПб., 1889, С. 329-332.

LOYIHA

III-BOB. XIVA XONLIGINING HARBIY VA MUDOFAA TIZIMI MAVZUSINING O'QITISH MASALALARI VA TEXNOLOGIYALARI

1. Darslarda xiva xonligining xarbiy va mudofaa tizimi mavzusining o'qitishi uslublari.

1. Mavzu yuzasidan o'tkazilgan eksperiment va uning natijalari.
2. Mavzuning materiallari bo'yicha dars ishlanmasi.
3. Metodik tavsiyalar va xulosa .

1. Mavzu yuzasidan o'tkazilgan eksperiment va uning natijalari

Dissertatsiya mavzusi yuzasidan Shayxontohur tumanidagi 20 maktabning 9 "A" va 9 "B" sinf o'quvchilari orasida eksperiment o'tkazildi. Ushbu faoliyat avvalo eksperimentni o'tkazish rejasini tuzishdan boshlandi va birinchi navbatda eksperimentni o'tkazish sanasi belgilab olindi. Shuningdek bir soatlik dars ishlanma qilinib, 9 "A" sinfiga odatdagidek ma'ruza yani an'anaviy dars tashkil qilindi. 9 "B" sinfiga esa zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda noan'anaviy dars tashkil qilindi. Noan'anaviy dars bevosita mavzuga oid har xil pedagogik texnologiyalar, slayd, ko'rgazmali qurollar asosida tashkil qilinib, talabalarda mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirildi.

Dissertatsiya mavzusi yuzasidan o'tkazilgan eksperiment rejasi:

1. Eksperiment o'tkaziladigan sana;
2. Eksperiment o'tkaziladigan mavzuni tanlab olish;
3. Eksperiment o'tkaziladigan sinflarni tanlab olish;
4. Eksperimentni amalga oshirish;

5. Eksperement natijalarini tahlil qilish uchun mavzuga oid test sinovlarini har ikki sinfda ham o'tkazish;

6. Natijalarni tahlil qilish;

1. Eksperement o'tkaziladigan sana: 12. 12. 2014.

2. Eksperement o'tkaziladigan mavzuni tanlab olish: Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi

3. Eksperement o'tkaziladigan sinflarni tanlab olish: 9 "A" va 9 "B" sinflari

4. Eksperementni amalga oshirish: Eksperement 9 "A" sinf o'quvchilari orasida o'tkazildi. Ushbu jarayonda har bir guruh faol qatnashdi. O'quvchilarga odatdagidek ma'ruza asosida dars o'tildi. 9 "B" sinf o'quvlariga esa noan'anaviy tarzda dars tashkil qilindi. Ushbu guruhlarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish uchun test savollari tarqatildi va natija aniqlandi.

5. Eksperement natijalarini tahlil qilish: Mavzuga oid test sinovlarini har ikki guruhda ham o'tkazildi. O'quvchilarga quyidagi testlar tarqatildi.

Eksperement o'tkazilgan natijani olish uchun maxsus testlar:

1. Xiva xonligida Olloqulixonning xukmronlik yillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) 1802-1804 yillar

B) 1825-1842 yillar

S) 1842-1845 yillar

D) 1846-1855 yillar

2. 1819-1820 yillarda Xiva xonligiga qaysi elchi tashrif buyurgan?

A) A.Kun

B) N.Muravyev

S) N.P.Ignatev

D) I.Ivanin

3. Ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularning ta'minoti bilan Xiva xonligida kim shug'ullangan?

- A) Mehtar
- B) Shig'ovul
- S) Qushbegi
- D) Dorug'a

4. Xonlikdagi navkarlar (otliq qism) asosan qaysi millat vakillaridan tashkil etilgan?

- A) Yovmudlar
- B) Turkmanlar
- S) Qipchoq va qo'ng'irotlar
- D) Qozoqlar

5. Xon farmoni bilan qo'shinni urushga boshlab borish huquqiga qaysi lavozimdagi shaxs ega bo'lgan?

- A) Amir-ul-umaro
- B) Yasovulboshi
- S) Mingboshi
- D) Naqib

6. Qatovul –?

- A) Chegara qo'shinlarini boshqargan
- B) Harbiy qal'alar holatiga javobgar bo'lgan
- S) Mudofaa devorlari va istehkomining qurilishiga mas'ul bo'lgan
- D) Qo'shin tuzish, uni qurollantirish ishlari bilan shug'ullangan

7. Xiva xonligi qo'shinlarida rus va ingliz miltiqlarining paydo bo'lishi qaysi davrga to'g'ri keladi?

- A) XIX asr birinchi yarmida
- B) XIX asr ikkinchi yarmida
- S) XIX asr oxirlarida
- D) XVIII asr oxirlarida

8. Xiva xonligida esa muntazam qo'shin yasovulboshi tomonidan boshqarilar edi. Qo'qon xonligida qo'shinni boshqarish kimning zimmasiga yuklatilgan edi?

- A) Panjaboshi
- B) Mingboshi
- S) Pansodboshi
- D) Dahboshi

9. "Amir ul-Umaro" lavozimi qaysi Xiva xoni davrida ta'sis etilgan?

- A) Muxammad Rahimxon I
- B) Muxammad Rahimxon II
- S) Olloqulixon
- D) Muhammad Aminxon

10. Urush xarakatlari vaqtida xon farmoniga muvofiq tuzilmalarni qurollantirish va ularni joylashtirish, qo'shimcha qo'mondonlar tayinlash vazifasini qaysi lavozimdagi shaxs bajargan?

- A) Amir-ul-umaro
- B) Naqib
- S) Yasovulboshi
- D) Mingboshi

11. "Xivaliklar xukmronligi ostida sakkizta loydan qurilgan shahar bor; ularning devorlarining balandligi besh va olti sarjin; atrofida kanallar qazilgan". Ushbu ma'lumotlar kimga tegishli?

- A) D.Rukavkin
- B) I.Muravin
- S) V.V.Bartold
- D) A.Kun

12. Mustaqil ravishda muzokara olib borish huquqi Xiva xonligida qaysi lavozim egasiga berilgan?

- A) Naqib
- B) Mehtar

S) Devonbegi

D) Qushbegi

13. Xiva xonligida mulohalar bilan qurollangan alohida guruhlar mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar quyidagi qaysi manbada keltirilgan?

A) Bayoniyning "Xorazm tarixi" asarida

B) Abulg'ozir Baxodirxonning "Shajarayi turk" asarida

S) Ogahiyning "Riyozi ud-davlat" asarida

D) M.Yo'ldoshevning "Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi" asarida

14. Chor Rossiyasining Xiva xonligini bosib olishi qaysi bosqichga to'g'ri keladi?

A) 1-bosqich (1847-1865 yillar)

B) 2-bosqich (1865-1868 yillar)

S) 3-bosqich (1873-1879 yillar)

D) 4-bosqich (1880-1885 yillar)

15. Qo'ng'iroqlar sulolasining asoschisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Eltuzarxon

B) Olloqulixon

S) Muhammad Amin Inoq

D) Rahimqulixon

6. Natijalarni tahlil qilish.


Yuqoridagi test javoblari tekshirilib shunday natija hosil qilindi: An'anaviy tarzda dars o'tilgan 9 "A" sinf o'quvchilari 76 % natijani; Noan'anaviy tarzda dars o'tilgan 9 "B" sinf o'quvchilari esa 85 % ko'rsatkichni berdi.

2. Mavzuning materiallari bo'yicha dars ishlanmasi.

Biz dissertatsiyamizning ushbu bobida mavzuni o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan ayrim pedagogik texnologiyalarni tavsiya etishni maqsad qildik. Umuman hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar juda ko'p va dars jarayoniga qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda o'z ustida mustaqil, ijodiy izlanuvchan o'qituvchilar dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hozirgi zamon talablaridan biridir.

Shundan kelib chiqib, biz "Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi" mavzusini "Nima uchun?", "Venn diagrammasi" metodlaridan foydalanib, dars o'tish dars samaradorligini, o'quvchilarning faolligini oshirishiga ishonch hosil qildik. Men tajriba sinov maydoni etib Shayxontohur tumanidagi 20-maktabda tarix fanlarini o'qitishda ushbu texnologiyalarni dars jarayoniga qo'lladim va ijobiy natijalarga erishdim. "Nima uchun?" sxemasi texnologiyasi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

- Mazkur usulni o'rganish uchun o'quvchilar 3 guruhga yoki 6 guruhga bo'linadilar.
- Bu texnologiyadan shakllantirilgan muammo yuzasidan "nima uchun?" savoli qo'yilib unga har bir talaba-o'quvchi o'zining qarashlarini, fikrlarini yozadi.
- Asosiy maqsad noto'g'ri bo'lsada talaba-o'quvchilarning fikr bildirishlariga, oxir oqibatda to'g'ri xulosalar chiqarishlariga erishishdan iborat.
- "Nima uchun?" savolining qo'yilishi va unga javoblarning yozilishi muammo yechimi topilguncha davom etadi.
- Dastlab bir partada yonma-yon o'tirgan talaba-o'quvchilar, so'ngra kichik guruh, oxirida butun guruh yozma javoblari hamkorlikda taqqoslanib, takrorlanuvchi va xato fikrlardan tozalanib, bir umumiy to'g'ri natijaga kelinadi.
- Noto'g'ri javoblar tanqid ostiga olinmaydi.




“Venn diagrammasi” texnologiyasi

Bu metoddan o'rganilgan, bir-biriga bog'liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi.

Undan foydalanish bosqichlari:

- O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi;
- Plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo'yiladi;
- Har bir to'g'ri fikrga qo'yiladigan ball oldindan kelishib olinadi;
- Qo'yilgan topshiriq bo'yicha guruhlarining har qanday to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlari bir o'quvchi tomonidan ikki xil rangdagi flamasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib boriladi;
- Kichik guruh ichidan biror o'quvchi sheriklarining ismi-shariflari to'g'risiga ular aytgan fikrlarni qayd qilib boradi;
- Fikr bildirishlar nihoyasiga yetgach o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida to'g'ri va noto'g'ri javoblar aniqlanadi;
- To'g'ri javobga uch ball qo'yiladigan bo'lsa, har bir noto'g'ri fikr uchun guruhning umumiy balidan uch ball olib tashlanadi;
- Eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib hisoblanib ular rag'batlantiriladi;

- Bu jarayonda kichik guruhda qayd etilgan javoblarning noto'g'rilari o'chirib chiqiladi va natijalar e'tiborga olingan holda o'quvchilarga tabaqalashtirilgan ball yoki baho qo'yiladi.



Biz dissertatsiyamizningning ushbu paragrafida mavzuni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullarini ko'rib chiqdik. An'anaviy dars o'tish ham o'ziga xos afzalliklarga ega, albatta. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish, o'qituvchining o'z ustida tinmay izlanishga, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiradi.

Quyidagi mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish davom ettiriladi:

- Mavzuga oid manbalar bilan ishlash mahoratini, ular asosida tarixga ob'ektiv baho berishni o'rgatish;
- O'rganilgan mavzuni eng zarur nuqtalarini yozib borish (konspekt);
- O'z milliy tarixiy merosi va an'alariga e'zoz va undan faxrlanish hissini uyg'otish.

Darsda qo'llaniladigan material va jihozlar:

1. Texnika vositalari bilan jihozlangan o'quv xonasi.
2. Doska, bo'r.
3. Tarqatma materiallar.
4. Mavzuga oid adabiyotlar.

Dars bosqichlari:

№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Vahti
1	Uy vazifasini tekshirish	5 daqiqa
2	Yangi mavzuni o'tish	20 daqiqa
3	O'rganilgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
4	Darsni xulosalash	5 daqiqa
6	Uyga vazifa berish	5 daqiqa

Tashkiliy ishlar: Salomlashish, o'qituvchi o'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtiradi, xonani, doskani va texnika vositalarini tayorlaydi.

Darsning texnologik xaritasi:

Mavzu:	Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi
Maqsad va vazifalar:	<ul style="list-style-type: none">- Xiva xonligining tashkil topish jarayonidagi harbiy qo'shin, mudofaa tizimi va xonlikdagi boshqaruv tizimining o'ziga hos hususiyatlari haqida ma'lumot beradi.- XVII asrlarda XVIII asr boshlarida Xiva xonligidagi harbiy ish tarixi haqida ma'lumot beradi.- Olloqulixon hukmronligi davrida Xiva xonligidagi harbiy boshqaruv tizimi haqida ma'lumot beradi.
O'quv jarayonining mazmuni	<p>Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq Huroson davlati tasarrufida edi. 1505-yilda Shayboniyxon, 1510-yilda esa Eron hukmdori shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. Vazir shahri qozisi Umar qozi yetakchiligida safaviylar hukmronligiga qarshi xarakat boshlanadi. 1511-yilda Xorazmning mo'tabar zotlari mamlakat taxtiga shayboniyxon avlodlaridan bo'lgan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni o'tqazishga qaror qildilar. Shu tariqa Xiva xonligiga asos solindi.</p> <p>Tez orada Xiva, Xazorasp, Kat qizilboshlilardan tozalandi. 1524-yilda Shoh Ismoilning o'limi o'zbeklarning Urganchda mustahkam o'rtnashib, bu hududdagi anchagina yerlarni – Sharqda hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning Shimolida Saraxs tumani, Orol va Mang'ishloqni qo'shib olishga imkon berdi. Elbarsxon davridayoq, xonlikning siyosiy geografiyasi shakllanib bo'ldi. Uning tasarrufiga Xorazm – Amudaryo etaklaridagi qadimiy dehqonchilik vohasi, Shuningdek Mang'ishloqning Abulxon tog'lari, Dehiston va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman hududlari kirgan. Xiva xonligining Sharqiy chegarasi to XX asrgacha Amudaryo chap sohilidagi Darg'on (Darg'onota) qal'asi hududi bo'lgan. Elbarsxon tomonidan Xiva xonligida harbiy kuchlar va qo'shinga alohida e'tibor berildi.</p>

<p>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p>	<p>Metod: “Nima uchun?”, “Venn diagrammasi”.</p> <p>Forma: Kichik guruhlarda va jamoada ishlash.</p> <p>Vosita: Xarita, test savollari, matnlar.</p> <p>Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'zini-o'zi nazorat qilish.</p> <p>Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli sistema asosida.</p>
<p>Kutiladigan natijalar:</p>	<p>O'qituvchi: Mavzuni belgilangan vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Ko'pchilik o'quvchilarni baholashga harakat qiladi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga iloji boricha erishishga harakat qiladi.</p> <p>O'quvchi: Mavzuga oid yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashga o'rganadi. Nutq rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi.</p>
<p>Kelgusi rejalar: (tahlil, o'zgarishlar)</p>	<p>O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tadbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratini oshirish.</p> <p>O'quvchi: Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganish. O'z fikrini ravon bayon qila olish. SHu mavzu asosida qo'shimcha materillar topish, ularni o'rganish. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qilish.</p>

O'tilgan mavzuni takrorlash, uyga berilgan mavzu bo'yicha o'tkaziladi: *(ilgari berilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimini bilib olish uchun savollar tayyorlangan bo'lishi kerak).*

O'tilgan mavzu: "Shayboniylar davlati". O'quvchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini mustaxkamlash savollari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1. Shayboniyxon nechanchi yillarda yashagan?*
- 2. Shayboniylar davlati nechanchi yillarda yashab hukmronlik qilgan?*
- 3. Shayboniyxon qaysi taxalluslarda she'rlar yozgan?*
- 4. Shayboniyxon 1500-1507 yillarda zabt etgan shaharlarini sanab bering?*
- 5. Ko'chkunchi Sulton va Suyunchxo'jalarni Shayboniyxon qayerlarga hokim etib tayinlaydi?*

Dars mavzusi ustida ishlash:

Reja:

1. Xiva xonligining tashkil topish jarayonidagi harbiy qo'shin, mudofaa tizimi va xonlikdagi boshqaruv tizimining o'ziga hos hususiyatlari.
2. XVII asrlarda XVIII asr boshlarida Xiva xonligidagi harbiy ish tarixi
3. Olloqulixon hukmronligi davrida Xiva xonligidagi harbiy boshqaruv tizimi

Yangi mavzu bayoni:

1. Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq Huroson davlati tasarrufida edi. Xorazmda qo'ng'iroq qabilasidan chiqqan Chin So'fi hokim edi. U rasman Husayn Bayqaro noibi hisoblanardi. 1505-yilda Shayboniyxon, 1510-yilda esa Eron hukmdori Shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq Shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. Vazir Shahri qozisi Umar qozi yetakchiligida safaviylar hukmronligiga qarshi xarakat boshlanadi. 1511-yilda

Xorazmning mo'tabar zotlari mamlakat taxtiga Shayboniyxon avlodlaridan bo'lgan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni o'tqazishga qaror qildilar. Shu tariqa Xiva xonligiga asos solindi. Elbarsxon tomonidan Xiva xonligida harbiy kuchlar va qo'shinga alohida e'tibor berildi.

Yozma manbalarda qayd etilishicha, bu davrda eng asosiy jang qurollari o'q va kamon bo'lgan. Oddiy kamon yoy shaklida egilgan qattiq yog'ochning ikkala uchini mustahkam ip bilan tarang qilib bog'lash orqali yasalgan. Bu davrda kamonning asosi tashqi tomondan chandir, ichki tomondan silliq muguz bilan yopishtirilgan yog'ochdan iborat bo'lgan. Ba'zida tutqichning o'rtasi va oxiri suyak (dandon) bilan qoplangan. Bu kamonning o'qi uzoqqa otiladigan alohida, murakkab turi edi. Shu bilan birga, murakkab tuzilishga ega kamonlarning turlari ham turlicha bo'lgan. Kamondan o'q uzish nafaqat o't ochish qurollari paydo bo'lgunga qadar, balki undan keyin ham O'rta Osiyoda muayyan masofadan turib nishonga urishning asosiy usuli bo'lib kelgan. Qilich va o'qlangan kamondan hujum vaqtida otliqlar keng foydalanganlar. Kamondan qamal qilingan shaharliklar ham qal'a devorlarida turib, unumli foydalanganlar. Binobarin, kamon va o'qlar turli shakl va o'lchovda tayyorlangan. Kamon va o'qlarni olib yurish uchun ustalar sadoq yasaganlar. Aslzodalarga mo'ljallangan sadoqlar qimmatbaho charmdan tayyorlangan.

Ma'lumki, kamondan otish uchun o'q uyacha (chuqurcha) vositasida ipga mustahkamlangan. O'qlar turli shaklda bo'lishi mumkin edi. Yog'och, poynak va qush patidan yasalgan o'qlar keng tarqalgan. Ba'zida o'q yasashda qush patidan foydalanilgan. Yog'och o'qlar turli turdagi daraxtlardan tayyorlangan, jumladan, qayindan yasalgan o'qlar tilga olinadi. Paykonlar belgilangan vazifasiga ko'ra turli tuman bo'lgan. O'qning uzunligi kabi unga suqulgan patlar ham turli shaklda edi. Neftga shimdirilgan matoni o'qqa o'rash orqali yondiruvchi o'qlar ham tayyorlangan. Qamal qilinganlar qal'a devorlaridan turib qamal qiluvchilarni o'qqa tutish uchun ulardan foydalanganlar. Qamal qilayotganlar esa qamal qilinayotgan shaharda yong'in chiqarish maqsadida yondiruvchi o'qlar otganlar. O'qning o'rtacha qancha masofaga otilishidan amalda jang oldidan qo'shinning joylashgan

o'rnini, ba'zida esa umuman masofani aniqlash uchun foydalanilgan. O'qlarning uchi suyak (dandon) yoki metallardan yasalgan. Metall uchlar turli shakllarda tayyorlangan va shakldan kelib chiqib, turli maqsadlarga, masalan, ayrimlari sovutlarni teshib o'tishga mo'ljallangan. O'qlar va ularning uchlari hunarmandlar tomonidan maxsus yasalgan. Shu bilan birga, mutaxassis bo'lmagan ba'zi kishilar ham o'z bilganlaricha kamon va o'q yasaganlar. Sovut va zirhlar (jiba, sovut, javshan) jangchi tanasini sovuq va o't ochar qurollardan himoya qilgan. Harbiylarning boshini dubulg'a himoya qilgan. Dubulg'a turli shaklda, kigizdan tikilgan, shuningdek, sovut to'ri osilgan yoki osilmagan metallardan yasalgan bo'lishi mumkin. Lashkar yo'l boshchilari jangovor otlarining tanasi zirh bilan himoya qilingan. Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, jangchilarning deyarli hammasi qurol-aslaha va harbiy kiyim-bosh bilan ta'minlangan. Muhammad Solihning guvohlik berishicha, o'zbek sultonlari lashkari safidagi sovutsiz jangchilar o'z tanasini kigiz bilan o'ralib himoya qilganlar. Oliy hukmdorga mo'ljallangan urush qurol-yarog'lari qimmatbaho toshlar va nafis naqshlar bilan ziynatlangan. Xorazm hududidagi safari taassurotlarini tasvirlagan ingliz Antoniy Jenkinson Shunday yozadi: "26 dekabrda menga xon huzuriga kirish amr qilindi. Men unga rus podshohining maktubini topshirdim. Xon a'yonlari oldida mendan bizning miltig'imizdan otishga majbur etdi va o'zi ham ulardan otib, mashq qildi." Ushbu xabardan ma'lum bo'ladiki, mahalliy to'fanglar Antoniy Jenkinson qo'lidagi miltiqdan farq qilgan. XVI-asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran qo'lda olib yuriladigan o'q otish qurollarini texnik jihatdan takomillashtirish qo'shinni, shu jumladan, yollanma lashkarlarni ham qurollantirishda muayyan rol o'ynay boshladi. Ma'lumotlarga ko'ra, bo'lg'usi taxt sohiblari – valiahd shahzodalarga umumiy ta'lim berish bilan birga, yoshlikdan harbiy mashqlarga o'rgatish, jumladan, kamonlan o'q otish va otda yurishga o'rgatilgan. Xiva xonlari saroyida xonning voyaga yetmagan farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi mahsus otaliq lavozimi bo'lgan. Odatda, otaliqi bilan uning ustidan hukmronlik qilgan. Shu narsa diqqatga sazovorki, otaliqqa shahzodaning davlat ishlari bilan yaxshigina umumiy ma'lumot olishi, ayni paytda, harbiy san'ati va jismoniy

mashq turlarini ham yetarlicha darajada yegallashi uchun g'amxo'rlik vazifasi yuklatilgan. O'rta asrlarga mansub manbalarda kamondan o'q uzish bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar ta'rifi ko'plab uchraydi. U yoki bu a'yonga ta'rif berilar ekan, odatda, uning kamondan o'q uzish bo'yicha mahorati ham qayd etib o'tiladi. Jumladan yosh shahzodalarga "mohir mergan", "kamondan yaxshigina otadi" kabi ta'riflar berilardi. Shuningdek, nishonga qarab otishga mo'ljallangan jismoniy mashq inshootlari sadafxonalar (tir) to'g'risida ham ma'lumotlar uchraydi. Bu yerda kamondan o'q uzish bo'yicha harbiy musobaqalar o'tkazilgan. Odatda, muayyan balandlikka osib qo'yilgan qovoq, taxta yoki qog'ozga kamondan o'q otib, mashq qilingan. Bunday musobaqalar jangga tayyorgarlik sifatida yurishlar oldidan tez-tez o'tkazilib turilgan. Bundan tashqari, shahar tashqarisida maxsus ajratilgan tekis maydonlarda ot bilan musobaqalashish – milliy ot o'yinlari va poygalar ham o'tkazilgan. Otda yura olish O'rta Osiyo aslzodalarining o'zlariga hos xususiyati hisoblangan. Odatda otda yurish va otni boshqarish san'atini egallash aslzoda toifaga mansub yoshlarni o'qish-o'qitish dasturiga kiritilgan.

2. O'rta Osiyo xonliklarida muntazam qo'shinning xizmat muddati cheklanmagan edi. Askarlar mamlakatda tinchlik hukm surgan paytlarda o'z oilalarida yashab, xunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanganlar, yerga ishlov berganlar. Xonliklardagi xukmdorlar qo'shinning harbiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda oziq-ovqatga alohida e'tibor qaratishgan. Bunda moddiy ne'matlar - don-dun, go'shi, yog' va boshqalar bilan ta'minlanishiga e'tibor berilgan. O'rta Osiyo xonliklarida harbiylarning turli soliq va majburiyatlardan ozod etishga xarakat qilingan. Xususan, ularning yerlarida yetishtirilgan hosilning bir qismini hiroj sifatida to'lashlari lozim bo'lgani holda, ular bunda soliqni to'lashdan ozod etilgan edilar. Odatda bunday imtiyozlardan harbiylarning turli mansabdorlari foydalanar edilar. Xiva xonligida harbiylarni taqdirlash borasidagi an'analarga ko'ra, janglarda alohida xizmat ko'rsatgan harbiylar, harbiy mansab va unvon egalari ma'lum miqdordagi pul, yer, mol-mulk va qimmatbaho buyumlar bilan taqdirlanganlar. Jumladan harbiy xarakatlar davrida o'zini ko'rsatgan harbiylar ularning mansabi va xizmatiga mos ravishda turli-tuman tortiqlar: zarbof shoyi, ip

matodan tikilgan to'nlar, sallalar, pichoq, kamar, qilichlar bilan mukofotlanganlar. Yuqori mansab egalariga oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamar, pichoq va qilichlar taqdim etilgan. Xiva xonligida qo'shinning sog'lig'ini ta'minlash borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Harbiy xarakatlar vaqtida xarakatdagi qo'shinning talofat ko'rgan askarlarga tibbiy yordam markazlashgan tarzda amalga oshirilmagan. Harbiy xarakatlar chog'ida sog'ligiga zarar yetgan askarlarga davolanish uchun xon xazinasidan ma'lum miqdorda pul ajratilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, harbiy xarakatlar davomida qo'shinning yurishi uchun zarur narsalar arava, chodir va boshqa narsalar ham xon xazinasini tomonidan qoplangan. Bunday vaqtlarda qo'shin bilan birga savdogarlar ham yurgan. Ular harbiy xarakatlar vaqtinchalik to'xtagan paytlarda bozor tashkil qilganlar. Tashkil etilgan o'ziga hos bu bozordan askarlar harbiy yurishga o'zlari bilan olib ketadigan oziq-ovqat, yem-hashagi tugagan taqdirda, bu mahsulotlarni sotib olganlar. Bunday bozorlarda ko'pincha turli kiyim-bosh, jumladan, to'nlar bilan ham savdo qilingan. Bunday mahsulotlarni, asosan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga qurbi yetmagan askarlar ko'p hollarda och-nahor qolib ketganlar. Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, hunarmand va savdogarlar barcha yurishlarda ham harbiylarga hamroh bo'la olmas edilar. Shuningdek qo'shin bilan birga turli ishchilar ham birga yurar edi. Ular yer qazish, yo'llarni, ko'priklarni ta'mirlab, to'g'irlab borishlari lozim edi. Xon tomonidan boshqarilgan qo'shindagi harbiy lavozimlar bu davrda ham o'tgan asrlar ko'rinishida saqlab qolingan. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'rta Osiyo xonliklarida aholi yashaydigan manzillar atroflarini devorlar va o'z navbatida, ularning ham atroflarini suv to'ldirilgan handaqlar bilan o'rab olish an'anasi amalda keng qo'llanilgan. Bu o'rinda so'nggi o'rta asr shaharlarini misol keltirish mumkin. Shahar devorlari ular atrofidagi handaqlar bilan birgalikda eng yaxshi himoya vositasi hisoblangan. Bunga XVIII asr muarrix Mulla Maxdixon Astrabodiyning Xiva xonligiga qarashli Xazorasp haqidagi yozgan quyidagi so'zlarini eslash o'rinlidir: "Bu qal'a handaqqaga ega bo'lganligi va mahkam devor bilan mustahkamlanganligi uchun...bu qal'aga hujum qilish sog'lom fikrdan uzoq ish edi". Muarrixning qayd etishicha, aynan shuning uchun

Eron Shohi Nodirshoh (1736-1747) XVIII asr 40-yillarida qal'ani ishg'ol qilishdan voz kechgan. Xiva xonligidagi harbiy mansabdorlar vazifasi quyidagicha taqsimlangan: Amir-ul-umaro – qo'shinni xon farmoni bilan tanishtirgan; yasovulboshi – xon farmoni bilan qo'shinni urushga boshlab borgan; mingboshi – 1000 nafardan iborat harbiy bo'linma boshlig'i; yuzboshi-100 nafardan iborat harbiy bo'linma boshlig'i; qatovul – harbiy qal'alar holatiga javobgar bo'lgan; sarxan-mudofaa devorlari va istehkomining qurilishiga mas'ul bo'lgan; qorvulbegi – chegara qo'shinlarini boshqargan; naqib – qo'shin tuzish, uni qurollantirish ishlari bilan shug'ullangan; naqib urush vaqtida qo'shinning o'ng va so'l qanotlaridagi, orqa va old qismi hamda markazi va pistirmadagi askar holatiga javobgar bo'lgan. Yasovulboshidan keyingi harbiy darajada mingboshi va yuzboshi turgan. Yuzboshi yuzliklarni va mingboshi ming kishilik qismlarni boshqarganlar. Xonlikda eng katta maosh (500 tillo) yasovulboshiga berilgan.

3. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Xivada ichki ishlar, qamoqxonalar, shuningdek xonni qo'riqlash ishlari yasovulboshi qo'lida bo'lgan. Maxfiy farmonlar ham uning qo'lida turar edi. U askariy qismlarga qo'mondonlik qilar edi. Yasovulboshilik yuqori sarkarda mansabi hisoblanib, xonlikda ular ikki kishi bo'lib, biri yovmut turkmanlariga, ikkinchisi esa chovdurlarga qo'mondonlik qilardi. Yasovulboshining vazifasi xonning farmoniga muvofiq askarni o'z vaqtida urushga boshlab borish bo'lgan. Tinchlik vaqtlarida yasovulboshilar navbat bilan xon turli iltimoslarni qabul qilgan marosimlarda hozir bo'lganlar. Ma'lum bo'lishicha, xon huzuridagi rasmiy qabul marosimlarida yasovulboshilarning doimiy o'rinlari bo'lmas edi, lekin ular xon huzurida bo'ladigin tor kengashda mehtar, qushbegi va devonbegi bilan bir qatorda qatnashar edilar. Har bir yasovulboshining bir necha yordamchisi bo'lib, ular yasovullar deb atalgan. Arznomani tekshirish uchun xondan farmon olgach, yasovulboshi o'z yordamchilaridan birini shikoyatchiga qo'shib, hodisa yuz bergan joyga jo'natardi. "Riyoziy ud-davla" asaridan ma'lum bo'lishicha, 1255/1839 yil 10 noyabr kuni Olloqulixon janglar vaqtida vafot etgan Muhammad Niyoz yasovulboshining o'rniga uning o'g'li Rahmatullani yasovulboshi qilib tayinlagan. Rahmatulla

yasovulboshi sarkarda bo'lib, uning ixtiyorida turkmanlarning yovmud urug'idan shakllangan ko'p ming kishilik guruh bor edi. U qatnashmagan hech bir harbiy safar bo'lmas edi. Chunonchi, Rahmatulla yasovulboshi 1842-yili Olloqulixonning Chorjo'ygacha qilgan urush safarida qatnashgan.

So'nggi jumladan ma'lum bo'ladiki, dorug'alarning raisi bo'lgan va yasovulboshilar u orqali boshqa dorug'alarga va mirshablarga murojaat qilgan bo'lsa kerak. XIX-asr boshlarida viloyatlarning har birida 1000 tagacha navkar bo'lib, harbiy yurish paytida nomuntazam qo'shin to'plangan. Xonlikda oliy harbiy xokimiyat xon qo'lida edi. Xonlikdagi yirik amaldorlarning aksariyati harbiy kishilar edi va ularning har biri sarkarda etib tayinlanishi mumkin edi. M.Yo'ldoshev "Yasovullardan keyin mingboshilar keladi" – deb xabar berib o'tadi va ularni "mingboshi oqo" deb ta'riflaydi. Ogahiy shuningdek, shaxmolchilar va to'pchiboshilar to'g'risida ham ma'lumot berib o'tadi. Jumladan, Muhammad Yoqubho'ja to'pchiboshi bo'lganligini bilamiz.


Xonlikda ichki tartibni saqlab turish mirshablar zimmasida edi. Ular shahar bosh darvozalarida turib kelib ketuvchilarni kuzatib turganlar. Bundan tashqari, safarbarlik holatlarida askarlar bilan harbiy yurishlarda qatnashadigan mirshablar ham bo'lgan. Ma'lum bo'lishicha, xonlikda hamma shahar va dahalarning o'z mirshablari bo'lgan. Xonlikning qurolli kuchlari markazlashgan davlat ma'muriyatining tarkibiy qismiga kirgan. Mamlakat fuqorolari bu qo'shinni o'zlari uchun eng mustahkam tayanch deb bilganlar. Xiva qo'shinining shu qismi boshqa qismlarga qaraganda ancha imtiyozli bo'lgan. Xon navkarlariga Xiva shahri atrofidan, ya'ni ularning qismlari turadigan joylarning atrofidan yer va suv berilgan. Ularga doim maosh to'lab turilgan. Tinchlik vaqtida xon qo'shini shaharni muhofaza qilishdan tashqari boshqa xil vazifalarni ham bajarardi.

Sarkardalik mansabi qo'shin urush safariga chiqqan davrda belgilanardi. Mingboshi va yuzboshilar singari sarkardalar ham bevosita xonning yorlig'i bilan tayinlanar edi. Sarkarda harbiy mahkama kishilari bo'lmasligi ham mumkin edi. Masalan, Munis mirob, Ogahiy mirob va Tog'ay miroblar urush safarlarida qatnashgan va bunda Tog'ay mirob asosiy sarkardalardan bo'lgan.

Bahs-munozara uchun savollar:

1. Xiva xonligi qachon tashkil topgan?
2. Xonlikda 1825-1842 yillarda qaysi xon xukmronlik qilgan?
3. Xiva xonligi chegaralari qaysi hukmdorlar davrida kengaytirilgan?
4. Xiva bilan Qo'qon xonligi o'rtasidagi munosabatlari haqida gapiring?
5. Xonlikning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi haqida gapiring va hakazo.

Biz dars jarayonining ushbu qismida bevosita kichik gurux tashkil etib, yangi mavzuni mustahkamlashimiz mumkin. 4 ta kichik guruhlariga o'quvchilarni teng taqsimlaymiz. Masalan: 1- guruh ga 4 ta o'quvchi, 2- guruhga 4 ta o'quvchi va x. k ...



Darsni yakunlash.

Xayrlashuv.

METODIK TAVSIYALAR:

“Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi” mavzusi ustida olib borilgan tajriba – sinov natijalari o’zining ijobiy natijasini ko’rsatdi. Biz tajriba-sinov jarayonida tanlagan tajriba guruhimiz o’quvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o’tilganda, mustaqil fikrlash, o’zini-o’zi boshqarish, taklif etilayotgan tarixiy manbalarni qiyosiy tahlil qila olish, adabiyotlar ustida ishlay olishlarini namoyish eta oldilar va ulardagi ko’rsatkich 85 % ni tashkil qildi. An’anaviy dars asosida tashkil etilgan mashg’ulotda o’quvchilar bilimi chegaralab qo’yilganligi sezildi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, agar darslar zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o’tilsa:

- O’quvchilar o’z fikr-mulohazalarini ilmiy va erkin bayon eta oladilar;
- O’z-o’zini boshqarish, o’zgalar fikriga hurmat, eshita olish qobiliyatlari shakllanadi;
- Mavzuni hozirgi davr voqealari bilan bog’lay olish ko’nikmalari hosil bo’ladi.

Biz yuqoridagilardan kelib chiqib, tarix fani o’qituvchilariga quyidagini tavsiya etamiz: Ya’ni, “Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi” mavzusini o’qitishda “Nima uchun?” va “Venn diagrammasi” pedagogik texnologiyalar asosida o’qitish dars samaradorligini oshiradi. O’quvchilarning mustaqil bilim egallashlariga va o’qituvchining o’z ustida ishlashga va ilmiy izlanishga majbur etadi.

III-BOBGA XULOSA

Dissertatsiyaning III-bobini Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi mavzusining o'qitishning masalalari va texnologiyalari deb nomladik.

Bu bobda "Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi" darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish usullari, mavzuning materiallari bo'yicha dars ishlanmasiga e'tiborimizni qaratdik. Yuqoridagilardan kelib chiqib, III-bobga quyidagicha xulosa qilindi:

1. O'zbekiston davlatchiligi va tarixshunoslik fanidan "Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi" mavzusini o'qitishda "Nima uchun?", "Venn diagrammasi" metodidan foydalanish dars samaradorligini, o'quvchilarning faolligini oshiradi.
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda matn bilan mustaqil ishlashni, o'z fikrini ravon bayon qila olishni, shu mavzu asosida qo'shimcha materillar topish, ularni o'rganishni, o'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakalarini shakllantiradi.
3. Shuningdek, o'quvchilar o'z fikr-mulohazalarini ilmiy va erkin bayon eta olish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-galar fikriga hurmat, eshita olish qobiliyatlari shakllanadi va mavzuni hozirgi davr voqealari bilan bog'lay olish ko'nikmalari rivojlantiradi.

Eksperiment jarayonida ishtirok etgan a'zolar:

20-maktab rahbari : _____ **Sh.Qosimova.**

20-maktab "O'quv ishlari bo'yicha"
rahbar o'rinbosari: _____ **M.Mamatova.**

20-maktab "Ma'naviy ishlar
bo'yicha" rahbar o'rinbosari: _____ **Sh.Jalilova.**

20-maktab Tarix fani
o'qituvchisi: _____ **X. Sodiqova.**

Eksperiment o'tkazuvchi:

TDPU Tarix o'qitish metodikasi
yo'nalishi 2-bosqich magistranti: _____ **I.B.Salayev.**

XULOSA.

Mustaqillika erishganimizdan keyin jahonning eng qadimiy yurtlaridan biri bo'lgan Xorazmning uzoq o'tmishi, tarixini o'rganish va uni yoritish yangicha mazmunga ega bo'ldi. Bu ko'hna yurt tarixiga qiziqish uni har tomonlama o'rganish va yoritishga intilish jahonning ko'plab mamlakatlarida kuchli bo'lgan. Xorazm zaminida so'nggi bir necha asr davomida faoliyat ko'rsatgan va o'zbek davlatchilik tarixida sezilarli iz qoldirgan Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi kam o'rganilgan mavzular qatoriga kiradi. Biz mazkur ilmiy tadqiqot ishimizda Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi masalasini mahalliy hamda chet el tarixchilari manbalari, mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarni tahlil etib quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, mavzuni tahlil etishda bir qator manbalardan, xususan Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, “Xorazm tarixi” asarlari, Abulg'ozii Baxodirxonning “Shajariyi turk”, Said Xomid Komyobning “Tavorix ul-xavonin”, Munis va Ogahiy Xorazm tarixiga oid bir necha asarlaridan Hamid Ziyoyevning “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash” (XVIII asr – XX asr boshlari), “O'zbekistonning yangi tarixi” 1-tom, shuningdek rus muarrixlari Желябужскийнинг “Очерки о завоевании Хивы”, П.П.Ивановнинг “Очерки по истории Средней Азии (XVI середина XIX в)”, В.В.Бартолднинг “Отчёт о поездки в Среднюю Азию с начную целью”, А.Ф.Якуниннинг “Народы Средней Азии и России”, С.В.Жуковскийнинг “Сночение России с Бухарой и Хивой последнее трехсотлетие” boshqa bir qator asarlardan mavzuni tahlil etishda foydalandik. Bu asarlarda Xiva xonligining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan bir qatorda xonlikning harbiy va mudofaa tizimi haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Shunday ekan bu manbalar mavzuni tadqiq etishda asos bo'la oladi.

Ikkinchidan, XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligi tarixiga oid manbalarni ko'rib chiqar ekanmiz, shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, rus tarixchilari tomonidan yozilgan manbalarda Xiva xonligining harbiy va mudofaa

tizimi haqida bildirgan fikrlarida hech qanday yolg'on fikrlar va bo'rttirishlar uchramaydi. Axborot tarzida bo'lsa-da, bu adabiyotlarning qimmatini shundaki, mualliflar hech bir istehola qilmay, o'zlari tarafdin bo'lgan mustamlakaning haqiqiy basharasini, oshkor va pinhon niyatlarini takabburlik bilan oshkor etganlar. SHuning uchun ham bu kabi manbalar va mahalliy mualliflar manbalarini solishtirib, tahlil etib, Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimini o'rganishda qimmatli ma'lumotlar bera oladigan manbalar qatoriga kiritishimiz mumkin.

*Uchinchi*dan, tadqiqot ishiga oid manbalar va tarixiy asarlarni o'rganish jarayonida Xalifin.N.A. asarlari Rossiya imperiyasi bosqini davrida Xiva xonligidagi vaziyatni o'rganishimiz uchun asosiy manba vazifasini o'tadi. Unda xonlik egallanishidan oldin o'rganib chiqilishi, istehkomlar qurilishi va egallanishi yaxshi bayon etilgan. Bundan tashqari bir qancha tarixchilarning asarlari jumladan XVIII asrda yashagan arab muarrix Mulla Maxdixon Astrobodyning Xiva xonligiga qarashli Xazorasp haqida yozgan quyidagi so'zlari ham isbotlaydi: "Bu qal'a handaqqaga ega bo'lganligi va mahkam devor bilan mustahkamlanganligi uchun... bu qal'aga hujum qilish sog'lom fikrdan uzoq ish edi." Muarrixning qayd etishicha, aynan shuning uchun ham Eron shohi Nodirshox XVIII asrning 40-yillarida qal'ani ishg'ol qilishdan voz kechgan. "Xiva zabt etib bo'lmaydigan qal'a" sifatida mashhur bo'lgan ikkita devorga ega bo'lgan. Shaharning asosini tashkil etgan ichki shahar Ichanqal'ani qamrab olgan devor haqida 1753 yil Xivada bo'lgan rus savdogari Danila Rukavkin shunday yozadi. "Shahar to'rtburchak shakldagi loydan qurilgan devor bilan himoyalangan; burchaklarda shuningdek, xavfli yerlarda qorovullar uchun budkalar (minoralar) o'rnatilgan". Xivaning tashqi qismi – Dishanqal'a devori Olloqulixonning 1842-yilda Buxoroga yurishidan biro y oldin qurilgan edi. Bu devorning atrofi ham xandaq bilan o'ralgan bo'lib, suv bilan to'ldirilgan edi. XIX asrning 40 yillarida Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib ketgan bir vaziyatda Xiva xoni Olloqulixon buyrug'i bilan 1842-yilda Pitnak shahri mustahkam devor bilan o'rab olingan.

To'rtinchidan, Xorazm tarixnavisligining yirik namoyondalaridan biri Muxammad Yusuf Bayoniydir. Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” nomli asarlari Xorazm va O'rta Osiyo xonliklardagi tarixini o'rganishda juda nodir manbadir. Bayoniy asarlardagi ma'lumotlar ishonchli ekaniga muallifning o'z kafolati bor. U “Tarix kitobi yozishning bir sharti bor tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon etish kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa uning so'zlari xech bir odamga maqul bo'lmaydi” deb ta'kidlagan. Uning asarlari shu jihati bilan xam qimmatlidir. Chor Rossiyasi qo'shinlarining Xiva xonligini bosib olishgach xonlikdagi aholiga nisbatan qilgan vaxshiyliklari hususida barcha ma'lumotlar faqat Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida keltirilgan. Mavzuni tadqiq etishda Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asari birinchi darajali manba ekanligi bilan ham axamiyatlidir. Shu bilan birga Munis va Ogahiyning ham nodir asarlarida mavzuga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Beshinchidan, Xiva xonligidagi harbiy va mudofaa tizimi mavzusini umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfida o'qitishning usullarini ishlab chiqish natijasida ma'lum darajada o'quvchilar bilim darajasini oshishiga, erkin fikrlashishiga erishiladi. Buning uchun avvalo zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish lozim bo'lib, bu shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustaqil fikr yuritish, o'z ustida ishlash, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish kabi xislatlarni ham shakllanishiga zamin yaratadi. Bu amaliyot davomida 9-sinf o'quvchilariga mazkur mavzu yuzasidan dars o'tganimizda mavzuga oid slaydlardan foydalanib “Nima uchun?” va “Venn diagrammasi” metodlarini qo'llab darsni tashkillashtirdik va o'zimiz kutgandan xam yaxshiroq natijalarga erishdik. Dars qanday tashkillashtirilganligi, zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dars o'tishning yangi, zamonaviy usullaridan qanday usulda foydalanganligi tadqiqot ishimizning uchinchi bobida kengroq qilib, ma'lumotlarni jadvallar asosida va dars ishlanmalari, texnologik kartalar orqali tushuntirib berganmiz.

Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi mavzusini o'rganish va tadqiq etish jarayonida mahalliy va chet el iarixchi va olimlarining qimmatli asarlar va o'rganilayotgan davrga oid manbalardan foydalanib, ularni tahlil etib mavzuni o'rganar ekanmiz, Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi mavzusini o'rganish eng dolzarb muammolardan biri ekanligini anglab oldik va kelgusida yanada ko'proq jihatlarini o'rganishni o'z oldimizga maqsad etib belgilab oldik.

Tayanch so'zlar lug'ati

№	O'ZBEKCHA	RUSCHA	INGLIZCHA
1	Aholi	Население	Population
2	Akademik	Академик	Academician
3	Alloma	Учёный, начитанный	Learned
4	An'anaviy	Традиционный	Traditional
5	Askar	Солдат	Soldier
6	Bosqich	Ступенька	Step
7	Darslik	Учебник	Textbook
8	Darvoza	Ворота	Sate
9	Davlat	Государство	State, Nation, Government
10	Devor	Стена	Wall
11	Dolzarb	Разгар	Peak
12	Dushman	Враг	Enemy
13	Eski	Старый	Old
14	Falokat	Беда	Misfortune, Trouble
15	Harbiy soha	Военная часть	Military branch
16	Harbiy mashq	Военные упражнения	Military training
17	Havfsizlik	Безопасность	Security
18	Havfli	Опасный, Страшный	Dangerous
19	Himoya	Защита	Protection
20	Imtiyoz	Льгота	Privilege
21	Jahon	Мир, Свет	World
22	Jamoa	Селение и люди	Community
23	Jamiyat	Общество	Society, Company
24	Jarayon	Процесс	Process
25	Jangchi	Воин	Warrior
26	Jang qilish	Воевать	Battle
27	Jangovor oybolta	Оружейный топор	Warlike pole-axe
28	Kamon	Лук	Bow
29	Kelajak	Будущее	Future
30	Konstitutsiya	Конституция	Constitution
31	Ko'mak	Помощь, Подмога, Поддержка	Assistance, Help
32	Ko'rik	Осмотр	Inspection
33	Lashkar	Войска	Military
34	Loyiha	Проект	Project, Design
35	Mablag'	Инвестиции	Investments
36	Madaniy	Культурный	Cultural
37	Majburan	Насильно	By force
38	Maktab	Школа	School

39	Mamlakat	Страна	Country
40	Manba	Источник	Source
41	Markaziy boshqaruv	Главное управление	Central control
42	Masofa	Расстояние	Distance
43	Maydon	Плац	Arena, ground
44	Mashg'ulot	Занятие	Occupation
45	Metall	Металл	Metal
46	Miltiq	Ружьё	Gun
47	Mudofaa tizimi	Система оборона	Defence
48	Mustaqillik	Независимость	Independence
49	Nayza	Стрела	Pike
50	Olim	Учёный	Scientist
51	Ot	Лошадь	Horse
52	Pichoq	Нож	Knife
53	Qurol	Оружие	Weapon
54	Qal'a	Крепость	Fortress
55	Qalqon	Щит	Shield
56	Qaram	Зависимый	Dependent on
57	Qilich	Сабля	Sword
58	Qo'riqlash	Сторожить	Defend
59	Qo'shin	Армия	Army
60	Sahro	Пустыня, Степь	Desert
61	Salohiyat	Способность	Ability, Capability, Capacity
62	Siyosiy	Политический	Political
63	Sovut	Кольчуга	Chain
64	Sulh	Подать	Agreement
65	Suvoriy	Всадник	On foot, pawn
66	Taktika	Тактика	Tactics
67	Talaba	Студент	Student
68	Tarixchi	Историк	Historian
69	Ta'sir	Влияние	Influence, Effect
70	Tashabbus	Застрельщик	Initiative
71	To'p	Писталет	Ball, Crowd
72	Urush	Война	War
73	Uslub	Стиль	Method
74	Uyushtirish	Организовать	Joining
75	Xalq	Народ	People
76	Xalqaro	Международный	International
77	Xanjar	Нож	Sword
78	Xavfsizlik	Безопасность	Safety
79	Xiva	Хива	Khiva

80	Xolisona	Объективно	Objectively
81	Xon	Хан	King
82	Xonlik	Ханство	Khanate
83	Yollanma	Наемный	Hired
84	Yondirish	Сжечь	Consume
85	Zaxira	Запас	Stock
86	O'q	Пуля	Arrow
87	O'rta Osiyo	Средняя Азия	Central Asia
88	O'zbekiston	Узбекистан	Uzbekistan
89	G'alaba	Победа	Victory
90	G'anim	Враг	Enemy
91	G'azab		Anger
92	G'ildirak		Whell
93	Shahar	Город	City
94	Sharoit	Условия	Condition, Environment
95	Shartnoma	Договор, Контракт	Agreement, Contract, Treaty
96	Chegara	Граница	Boundary
97	Chekinish	Отступить	Retreat
98	Chodir	Палатка	Large curtain
99	Chopar	Гонец	Courier
100	Chopqir	Бегац	Fast-running

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari.

- 1.1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. -Т.: Ўзбекистон, 1992.
- 1.2. Каримов И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. -Т.: Ўзбекистон, 1993.
- 1.3. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. -Т.: Ўзбекистон, 1995.
- 1.4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997.
- 1.5. Каримов.И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Шарқ, 1998.
- 1.6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интиломда. -Т.: Ўзбекистон, 1999.
- 1.7. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1999.

2. Asosiy manbalar va adabiyotlar.

- 2.1. Абулғози Баходирхон. Шажарийи турк. -Т.: Чўлпон, 1992.
- 2.2. Саид Хомид Комёб. Таворих ул-хавонин. -Т.: Академия, 2002.
- 2.3. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшохий. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1994.
- 2.4. Мунис. Танланган асарлар. –Т.: Ўзадаврناшр, 1992.
- 2.5. Огаҳий. Танланган асарлар. 6 жилдлик. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1971.
- 2.6. Огаҳий. Зубдату-т-таворих. –Т.: Ўзбекистон, 2009.
- 2.7. Бартолд В.В. Отчёт о поездки в Среднюю Азию с научную целью. 1893-1894. Соч. Том. 4. 1966.
- 2.8. Терентев М.М. История завоевания Средней Азии. Т. 1-3, СПб.1906.
- 2.9. Желябужский Э. Очерки и завоевания Хиви. СПб,1880.
- 2.10. Муравев Н. Путешествие в Туркмению и Хиву гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравева. М.,1822.
- 2.11. Залесов Н. Посолство в Хиву капитана Никифорова в 1841 года. М.,1865.
- 2.12. Килевейн Е.Б. Откривок из путиществия в Хиву и некоторые подробности о ханстве во время правления Сеид-Мохаммед Хана, 1856-1860. М., 1861.


- 2.13. Иванин М.И. “Хива и Аму-даря. М., 1873.
- 2.14. Григорев В.В. Описание Хивинского ханства и дорогу. Труды из Сарайчиковской крепости. –СПб.: 1861.
- 2.15. Голосов Д. Поход в Хиву// Военный сборник. 1861. Т. XXI.
- 2.16. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханство// Записки русского географического общества. –М.: 1851. Кн 5.
- 2.17. Назаров П. Воспоминания о степном походе в ханства Хиву и Бухару// Военный сборник. -1864. Н 4.
- 2.18. Неболсин П. Очерки торговли России со Средней Азией, Хивой, Бухарой и Кокандом (со стороны Оренбургской линии)// ЗИРГО. X. –СПб.: 1855.
- 2.19. Савелев П.С. Путишествие г. Базинера через Киргизскую степ в Хиву// Географ известия. -1849.
- 2.20. Кастелская З. Из истории Туркестанского края. (1865-1917). М.1980.
- 2.21. Папов А.Л. Из истории завоевания Средней Азии. Исторические записки. М.1940. № 9
- 2.22. Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России (60-90 годы XIX в.) М.,1965.
- 2.23. Якунин А.Ф. Народы Средней Азии и России. М.,1954.
- 2.24. Дворкина Э. Национально-колониальная политика самодержавий в первый годы царского владичества в Туркестане. (1867-1881 гг.) Диссертация на иск.уч.ст.канд.ист.наук. Т.,1943.
- 2.25. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI–середина XIX в) М.,1958.
- 2.26. Меендорф Е.К. Путишествие из Оренбурга в Бухару. -М.,1975.
- 2.27. Брегел Ю.Э. К изучению земельных отношений в Хивинском ханстве. Ежегодник. М.: Наука. 1972.
- 2.28. Гаврилов М.В. Куня-Ургенч: страницы прошлого и настоящего. -Ташавуз, 1993.
- 2.29. Жуковский С.В. Сношение России с Бухарой и Хивой последнее трехсотлетие. –Пг.: Б.И.,1915.
- 2.30. Захарин И.П. (Якунин) Граф В.А.Перовский и его зимний поход в Хиву. Сч.П. –СПб.: Б.И.,1901.
- 2.31. Фиолетов Н. Бухарское и Хивинское ханства и отношения их с Россией (XVI-XIX вв.)// Исторический журнал. -1942. Н 3. С. 11-12.
- 2.32. Ахмад Закий Валидий. Рус мустамлака сиёсатининг моҳияти ва мақсади. Вена. 1929 й. (Б.Қосимов таржимаси)
- 2.33. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. -Т.: Академия, 1964.

- 2.34. Муҳаммаджонов А, Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. –Т.: ЎзФА. 1957.
- 2.35. Неъматов Т. Хива билан Россия ўртасидаги муносабатлар тарихига доир баъзи манбалар. -Т.: Ўздаврناшр, 1959.
- 2.36. Неъматов Т. XIX аср: 20-50 йилларида Хива ва Россия муносабатлари тарихидан. –Т.: Ўздаврناшр, 1959.
- 2.37. Йўлдошев М. Хива хонлигида феодализм ер егаллиги ва давлат тузилиши. -Т.: Ўздаврناшр, 1959.
- 2.38. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. –Т.: ЎзФА. 1960.
- 2.39. Ҳамид Зиёев. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVIII – XX аср бошлари) Т., Шарқ, 1998.
- 2.40. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. –Т.: Ўзбекистон, 2002.
- 2.41. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. Т.: Ўқитувчи, 2001.
- 2.42. Худойназаров Ҳ. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. –Т.: Ўзбекистон, 1994.
- 2.43. Худойберганов К. Хива хонлари шажараси. Хива, 1996.
- 2.44. Худойберганов К. Ёзувларга яширинган тарих. Хива, 1996.
- 2.45. Бекмуҳаммад У. Ҳарбий ҳийлалар.-Т.: Янги аср авлоди, 2008.
- 2.46. Давлатёр Р, Шихназар М, Нусратулло Ж. Феруз шоҳ ва шоир қисмати. -Т. Хива, 1995.
- 2.47. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ, 2012.
- 2.48. Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. Т.: Офсет-принт, 2005.
- 2.49. Маннонов Б. Хоразм тарихнавислигида Хива хонлиги ташқи сиёсати // “Шарқшунослик”, № 6, 1997.
- 2.50. Абдурашулов А. Хива: Тарихий-этнографик очерклар. –Т.: Ўзбекистон, 1997.
- 2.51. Сағдуллаев А, Аминов Б, Мавлонов Ў, Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. –Т.: Академия, 2000.
- 2.52. Ўзбекистоннинг янги тарихи 1 китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. –Т.: Шарқ, 2000.
- 2.53. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: Шарқ, 2000.
- 2.54. Хива минг гумбаз шаҳри. -Т.: Фан, 1997

3. Internet ma'lumotlari:

- 3.1. www.khiva.uz
- 3.2. www.google.uz
- 5.3. www.pedagog.uz
- 5.4. www.ziyonet.uz
- 5.5. www.edu.uz


ИЛОVALAR:




Анжомлар билан жиҳозланган отлар.



Отлик жангчи.




Ҳарбий ҳимоя кийимлари ва қуроллари.



Devor buzuvchi toshotar qurol.



Harbiy musiqa asboblari



Dubulg'a



Harbiylarning oti uchun egar.



Gurzilar.



Chor Rossiyasi qo'shinlarining Xiva mudofaa devorlarini buzib shaharga kirishi



Xiva xonligining mudofaa devorlari



Xivaning mudofaa devorlari



Askarlarning yurishi uchun yo'laklar va o'q otishga mo'ljallangan maxsus shinaklar.



**Chor Rossiyasi bosqini davrida devorning
buzib tashlangan qismlari**



Xivaning mudofaa devorlari bilan o'ralgan qismining yuqoridan ko'rinishi

